



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
MAKTABGACHA TA’LIM METODIKASI KAFEDRASI**



**“MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA
RIVOYATLAR ORQALI TEJAMKORLIK
TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH”
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

BAJARDI: Maktabgacha ta’lim
yo‘nalishi bitiruvchi 4 - kurs talabasi
Abduraxmonova.X _____

ILMIY RAHBAR:

Kat .o‘q Yo‘ldosheva F.M. _____

Termiz – 2017

M u n d a r i j a

Kirish.....	
I BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA UNING SHAKLLARI	
1.1 Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish mazmuni.....	
1.2 Maktabgacha yoshdagi bolalarni iqtisodiy tarbiyalash shakllari.....	
I bob bo'yicha xulosa.....	
II BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI IQTISODIY TARBIYALASH USUL VA VOSITALARI	
2.1 Maktabgacha yoshdagi bolalarni iqtisodiy tarbiyalash usullari.....	
2.2. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tejamkorlik tushunchalarini shakllantirish vositalari.....	
II bob bo'yicha xulosa.....	
III BOB. MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA RIVOYATLAR ORQALI TEJAMKORLIK TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISHNING AMALIY SHART-SHAROITLARI	
3.1. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda rivoyatlar orqali tejamkorlik tushunchalarini shakllantirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlari	
3.2 Tajriba sinov ishlari natijalari va xulosasi.....	
III-bob bo'yicha xulosa.....	
UMUMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR.....	
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	
ILOVALAR.....	

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Inson o'z hayotida iqtisodiyot bilan doimiy munosabatda bo'ladi. Iqtisodiy tarbiya, avvalo, oiladan boshlanadi. Oilada iqtisodiy tarbiya zahirida ham mehnatsevarlikni tarbiyalash yotadi. Bolalar o'z mehnati natijalarini ko'rgandagina o'z imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanayotganini anglab etadi, mustaqil faoliyat yuritishni o'rganadi, ularda tadbirkorlik va ishbilarmonlik xislatlari tarkib topadi. Oilada yo'lga qo'yiladigan bolalar mehnati hovli va xonalarni tartibli saqlash, kiyim-kechaklarni asrab-avvaylash, uy jihozlarini ta'mirlash, ro'zg'or yumushlariga yordam berish kabilar ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ota-onalar bolalarni mehnat faoliyatini kuzatib borib, ularga zarur o'rinda maslahat beradilar. Ayniksa, bola-yoshlarda oilada ham, ta'lim muassasalarida ham tejamkorlikka rioya qilishga o'rgatish katta ahamiyatga ega.

Bugungi bolalar qacda yashashidan qat'iy nazar, doimiy ravishda ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ilmiy, texnikaviy va industrial sohalardagi o'zgarishlar bilan to'qnash kelishlariga to'g'ri keladi. Bolaning rivojlanishi va o'sishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Bu davrda uning shaxs sifatida shakllanishi, ilk bor olamni atrofida ashho va buyumlar orqali anglab, undan o'zicha ma'no topishga intilishi, qiziqish va hissiyotlari rivojlanishini kuzatamiz.

Hayotning har bir davri, rivojlanish xususiyatlari va ehtiyojlariga ko'ra o'ziga xos bosqichlarga ega. Bolaning o'sib, ulg'ayishida maktabgacha bo'lgan davrni shular sirasiga kiritish mumkin. Bolalar ohangraboli olam hisoblanib, juda tez o'sish, rivojlanish va o'zgarishlar ichida yashaydilar. Bu farzand tarbiyasida aynan shu palla qanchalik ahamiyatli ekanining yana bir isbotidir. Har bir oilada dunyoga kelgan bola-yosh avlod davlat o'rtaqa qo'ygan maqsadlarni amalga oshirishda fidokorlik, mehnatsevarlik bilan xizmat qiladigan shaxs sifatida kamol toptirilishi lozim.

Maktabgacha davrda ahloqiy tushunchalar borgan sari qat'iylasha boradi. Ahloqiy tushunchalar manbai bo'lib ularning ta'lim –tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari ham bo'lishi mumkin. Ahloqiy tajribalar asosan muloqot, kuzatish, taqlid qilish jarayonida, shu bilan

birga kattalarning ayniqsa onalarning maqtovi va tanqidlari orqali o'tadi va mustahkamlanadi. Bola doimo baho, ayniqsa maqtov olishga harakat qiladi. Bu baho va maqtovlarning bola shaxsidagi muvaffaqiyatga erishishga harakat hususiyatining rivojlanishida, shuningdek, uning shaxsiy hayoti, hamda kasb tanlashida ahamiyati juda katta.

O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda bolalarga iqtisodiy bilimlarni berish va ularda iqtisodiy faoliyatni yurita olish kunikma, malakalarni shakllantirish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar iqtisodiyot to'g'risida boshlang'ich tushunchalar olib, oila farovonligi mamlakat iqtisodiyoti bilan chambarchas bog'liqligini anglaydilar. Bolalarga odob-axloq doirasini tushunish, ko'pchilikni o'ylash va unga bo'ysunish, oila sha'niga dog' tushirmaslik, oila mulkini himoya qilish kabi fazilatlar shakllantiriladi.

Iqtisodiy tarbiya ta'lim muassasalarida yo'lga qo'yilayotgan iqtisodiy ta'lim bilan chambarchas xolda olib boriladi. Iqtisodiy tarbiyani tashkil etishda oila, ta'lim muassasasi va jamoatchilik o'rtasidagi mustahkam xamkorlikka tayanish ijobiy natijalarni kafolatlaydi. Iqtisodiy ta'lim bolalarga xo'jalik yuritish tizimi (oilalarning byudjetini shakllantirish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, kupaytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokazolar) to'g'risidagi nazariy bilimlarni berishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Iqtisodiy tarbiyaning asosiy maqsadi – yosh avlodga iqtisodiy faoliyat sub'ekti sifatida karalgan xolda yosh avlodning kelajakdagi xayot faoliyatlarini oshirish va buning uchun iqtisodiy faoliyat tuzilishini o'rganish, undagi o'zining o'rnini xis etish, zamonaviy iqtisodiy xulq-atvor me'yorlarini iqtisodiy madaniyatni egallash, zamonaviy iqtisodiy fikrlashni shakllantirish, mehnat vositalariga va natijalariga tejamkorlik munosabatini tarbiyalashdan iborat.

Bugungi kunda mamlakatimiz shiddat bilan rivojlanib, xalqimiz o'z oldiga qo'ygan ezgu va ulug' maqsadlarga erishishga intilmoqda. Bu maqsadlarga etish uchun ota-bobolarimiz asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy,

ilmiy, adabiy qarashlarni ifoda etadigan ma'naviy meros, madaniy boyliklar, bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlariga tayanamiz. Bu bebaho merosdan qanchalik yoshlarimizni ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda qudratli ma'rifiy salohiyatga ega bo'lamiz. Bular yoshlarimizni milliy o'zligini anglaydigan, shu bilan birga dunyoni chuqur o'rgangan, zamon bilan hamnafas qadam tashlaydigan etuk insonlar bo'lib etishishiga yordam beradi.

Jamiyat rivojlana borgan sari, ko'pgina tarbiya kategoriyalari kabi iqtisodiy tarbiya ham sekin-asta shakllanib borgan. Iqtisodiy tarbiya insoniyatning uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllandi.

Har bir tarbiyachi xalqimizning asrlar davomida shakllangan o'ziga xos odobi, urf-odatlar, qadriyatlar, insof, iymon, vijdon, diyonat, adolat, halollik va poklik kabi xislatlarni bolalarga o'rgatib borishi shart. Chunki bugungi bola o'zbek xalqining iqtisodiyotidan faxrlanishi, axloqli, iqtisodiy odobga ega bo'lgan fuqarosi sifatida jahon xalqlari hurmatiga sazovor bo'lishi lozim.

Iqtisodiy tarbiya insoniyatning ijtimoiy hayotini belgilab berishda, shaxs sifatida shakllanishida asosiy manba hisoblanadi. Iqtisodiy tarbiyaning maqsad va vazifalariga muvofiq ushbu jarayonga iqtisodiy faoliyat ham kiradi. Iqtisodiy tarbiya jarayoni vaqtni iqtisod qilish qonunlaridan kelib chiqadi. Bu qonuniyatning jamiyatdagi mavjud shart - sharoitlarida mavqei ortadi.

Iqtisodiy tarbiyani jamoasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bolalarni mehnatga o'rgatish uchun, avvalo, ularni mehnat qilishga o'rgatish, ularning mehnatlarini turli yo'llar bilan rag'batlantirish lozim. Ularda jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilgan holda moddiy zahiralarni, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni, mehnatni tejab-tergab foydalanishga o'rgatish lozim. Yuqoridagi fikrlar mavzuning dolzarbligini asoslab turibdi.

Muammoning o'rganilgan darajasi. Maktabagacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berishda SHarq mutafakkirlarining ma'naviy meroslari dasturilamal bo'ladi. Al-Forobiy, al-Buxoriy, al-Beruniy, ibn Sino, Ahmad YAssaviy, al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Amir Temur, YUsuf Xos Hojib, Ulug'bek,

Alisher Navoiy, Zahiriddin Boburlarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati har tomonlama rivojlangan, barkamol yosh avlodni tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi.

V.I.Andriyanova, K.Yo‘ldoshev, SH.N.Majitova, U.Mahkamov, O.Musurmonova, S.N.Nishonova, M.Ochilov, S.Ochil, M.Quronov va boshqalarning ishlarida samarali barkamol shaxs tarbiyasi, uni samarali tashkil etish, shaxsda barkamollik sifatlarining shakllanishida oila, ta’lim muassasalari, hamda jamoatchilik o‘rni va roli, shuningdek, barkamol shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat samaradorligini ta’minlash masalalari o‘rganilgan.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti: Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda rivoyatlar orqali tejamkorlik tushunchalarini shakllantirish

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda rivoyatlar orqali tejamkorlik tushunchalarini shakllantirishni o‘rganish.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti: Termiz shahar Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'mirlash va tashkil etish bo'limiga qarashli 25 -maktabgacha ta'lim muassasasi katta guruhida tashkil etilgan mashg'ulot jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishi vazifalari: Bitiruv malakaviy ishimizda quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan:

- A) Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish mazmunini ilmiy adabiyotlardan o‘rganish.
- B) Ilmiy adabiyotlardagi ma’lumotlar asosida nazariy qismni tayyorlash.
- V) Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda rivoyatlar orqali tejamkorlik tushunchalarini shakllantirishni tajribada qo‘llash,
- G) Tajribani olib borish.
- D) Tajriba natijalarini tahlil qilish, xulosa tayyorlash.
- E) Tegishli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.
- K) Taqdimot tayyorlash.

Bitiruv malakaviy ishining metodi: Bitiruv malakaviy ishida quyidagi metodlardan foydalanildi.

- 1) Kuzatish
- 2) Suhbat
- 3) Eksperiment
- 4) Tahlil qilish

Bitiruv malakaviy ishining amaliy va ilmiy ahamiyati. Ushbu malakaviy ishimizda maktabgacha yoshda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish, iqtisodiy tarbiya tuzilishi asosan o‘zaro munosabat faoliyatdan tashkil topgan. Faoliyat - bu insonning o‘rab turgan dunyoga bo‘lgan munosabati, o‘ziga xos xususiyatlar, bir maqsadga qaratilgan hayot mazmunidagi o‘zgarishlar, tuzatishlar kabilarni tashkil etadi. Inson faoliyatining asosiy ish turi mehnat bo‘lib, u insonning ma‘naviy va jismoniy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Mehnat insonning muloqoti, o‘qishi va iqtisodiy faoliyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Mehnat asosida shaxsning iqtisodiy tarbiyasi rivojlanadi, aqliy va axloqiy kamoloti ro‘yobga chiqadi.

«Bolajon» dasturiga ko‘ra dastlabki iqtisodiy ma‘lumotlar berish orqali bolalarda inson xayoti xaqidagi tasavvurlar rivojlantirilib boriladi. Extiyojning inson xayotidagi ahamiyati, moddiy extiyojlar tabiiy extiyojlar ekanligi, ularning zarurligi, uning moddiy kurinishi (masalan, ukituvchi va vrach), umumjamiyat, umuminsoniy extiyojlar, yaxlit birlikda yashab turish uchun zarur extiyojlar: tabiiy boyliklarni asrash; xarbiy mudofaa, extiyojlarning xayot kechirishning tabiiy sharoitiga bog‘liq bulmasdan, balki unga xos tarixiy ananalar, milliy udumlar bilan bog‘liqligi, inson uzi yashash uchun moddiy extiyojini kondirish jarayoni, yashash uchun shart-sharoitlar ta‘limiy mashg‘ulotlar asosida o‘tkaziladi. Mashg‘ulotda bolalar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlar o‘yin jarayoniga tadbqiq etiladi va bolalarda ko‘nikma, malakalar shakllanadi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilisi. Kirish , uch bob olti paragraf, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxari, ilovalardan iborat.

I BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA UNING SHAKLLARI

1.1MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASHDA MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISH MAZMUNI

Inson qadriyati milliy qadriyatlaridan kelib chiqishi jihatidan ijtimoiy mazmun-mohiyatga egadir, ular insonning ta'limi, tarbiyasi va kundalik mehnat faoliyati natijasida shakllanadi. Inson shaxsi ijtimoiy tarbiyadan kelib chiqadigan qadriyatlar inson manaviy-axloqiy me'yorlari, xulq-atvori va yurish-turishini tartibga solib turadigan bir kuchdir. Buning ta'siri natijasida insonning nafaqat xarakteri, balki uning fikr-xayoli yangicha mazmun kasb etib boyib boradi. Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarning tiklanishi natijasida inson qadriyatini o'rniga qo'yish, uning bilimi, madaniyat saviyasini o'stirish hamda ichki qobiliyat-ko'nikmalarini rivojlantirishga keng yul ochildi. So'nggi o'n yilliklar davomida inson shaxsi, uning haq-huquqlari, erkinliklari va qadriyatini muhofaza qilish bo'yicha ancha katta ishlar amalga oshirildi. Bulardan eng muhimi oila va maktab hamkorligini kuchaytirish, uning samaradorligi oshirishga qaratilgan tadbirlardir.

Ushbu yo'nalish yurtimizda «Talim to'g'risida» gi yangi qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi, qadimgi obidalarining tiklanishi, unutilgan tarixiy shaxslar nomlarining tiklanishi, sobiq sho'ro davrida ta'qiqlangan diniy e'tiqodimiz, islom farzlarini to'liq bajarishga keng imkoniyat yaratilganligi, diniy bayramlar, nashrlarga ruxsat etilishi hamda Toshkentda Islom universitetining ochilishi (1999 y.), islom olamida nomlari hurmat bilan e'tirof etiladigan mutasavvuf olimlar Nakshbandiyni 675 yilligi (1993 y), Ismoil Buxoriyning 1225 yilligi (1998 y), Burxoniddin Marg'iloniyni 910 yilligi (2000 y.), Mansur al-Moturidiyni 1130 yillik yubileyining (2000 y) keng nishonlanishi kabilarni keltirish mumkin. 1998 yil «Vijdon erkinligi va diniy

tashkilotlar to'g'risida» gi nizom, «Islom nuri» gazetasining chop etilishi, «Hidoyat sari» teleko'rsatuvi tashkil etilishi bu sohada muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy jabhalarda amalga oshirilayotgan tub isloxotlar jarayonida oila masalasiga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Albatta bu bejiz emas, chunki porloq ertamizning tamal toshlari oilada qo'yiladi. YUrtboshimiz Islom Karimov aytganlaridek: «Xaldimiz qadim-qadimdan oilani muqaddas deb bilgan. Axir oila ahil va totuv bo'lsa jamiyatda tinchlik va hamjihatlikka erishiladi, davlatda osoyishtalik va barqarorlik xukm suradi. Oila farovonligi-milliy farovonlik asosidir».

Demak, mamlakatimizda oila farovonligini ta'minlash davlatimizning asl maqsadidir.

Mamlakatimizda 1998 yilning «Oila yili» deb e'lon qilinishi va shu munosabat bilan «Oila manfaatlarini ta'minlash borasida 1998 yilda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar Davlat Dasturi» ning qabul qilinishi va amaliyotga tatbiq etilishi, Oliy Majlisning XI sessiyasida keng umumxalq muhokamasidan sung «Oila Kodeksi» ning bir ovozdan qabul qilinishi, Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 2 fevraldagi 54-sonli qaroriga binoan Respublika «Oila» ilmiy-amaliy Markazining tashkil etilganligi hukumatimiz tomonidan oila farovonligi, tinch-totuvligi va barqarorligini ta'minlashga bo'lgan e'tiboridan dalolatdir.

Mamlakatimizda oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish davlatimiz siyosatining ustivor o'nalishlaridan biri ekan, u quyidagi asosiy yunalishlarni o'z ichiga qamrab oladi:

- oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish, oila manfaatlari huquqiy himoya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalik huquqlarini muhofaza qilish;
- oilaning ijtimoiy manfaatlarini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, oila a'zolarining sog'ligini muhofaza qilish va ta'lim darajasini oshirish uchun shart-sharoitlarni yaxshilash;
- oilaning iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash uchun shart-sharoitlar

yaratish, oilaning daromadlarini, oila a'zolarining ish bilan ta'minlash darajasini oshirish, ro'zg'or yumushi va turmush sharoitlarini yaxshilash, kam ta'minlangan oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash; —oilaning ma'naviy-ahloqiy asoslarini va madaniy manfaatlarini takomillashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish; —oilaning sog'lom, aql-zakovatli yosh avlodni tarbiyalashdagi rolini oshirish har tomonlama kamol topgan avlodni tarbiyalashda oila va jamiyatning vazifalarini takomillashtirish; — oila muammolarini ilmiy va ijtimoiy tadqiq, etish, oila, xotin-qizlar va bolalarning iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini ko'rsatuvchi statistika hisobotini to'plash va takomillashtirish.

Darhaqiqat, Vatanimiz mustaqilligining qisqa davri ichida oila, onalik va bolalikni huquqiy manfaatlarini qonuniy muxofaza qilish, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash, uy mehnati va madaniy-maishiy turmush sharoitini yaxshilash, oilaning ma'naviy-ahloqiy asoslarini takomillashtirish, ko'p bolali, kam ta'minlangan, nochor oilalarni, nogironlarni, qarovchisiz keksalar, yolg'izlarni, etim-esirlarni ijtimoiy qo'llab quvvatlash, oilada ma'naviy va jismoniy barkamol shaxsni shakllantirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshiriladi.

Darhaqiqat, oila a'zolarining huquqiy savodxonligi va ma'naviy madaniyatini shakllantirish; har tomonlama sog'lom turmush tarzini qaror toptirish; oilaning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligi, farovonligiga erishish; oilada tadbirkorlikni keng yo'lga qo'yish; nogironlikning turli ko'rinishlarini oldini olish chora-tadbirlarini belgilash; oilada komil insonni tarbiyalash; yoshlarni umuinsoniy va milliy qadriyatlar mushtarakligida mustaqil hayotga tayyorlash tizimini yaratish va amalga oshirish zamirida oila masalalari bilan shug'ullanuvchi mutasaddi davlat va jamoat tashkilotlari, oila, mahalla, maktab va jamoatchilik hamkorligini mustahkamlash; oilada sog'lom psixologik muhit yaratish zamirida oilada ba'zan uchraydigan jinoyatchilik, nikohning bekor qilinishi, giyohvandlik, nosog'lom e'tiqod, maishiy nopoklik, axloqsizlikning turli ko'rinishlarga yo'l

qo‘ymaslik kabi masalalar bugungi kunda oilalarni jamiyat talablari darajasida shakllanishi uchun zamindir.

Mamlakatimizda adolatli, huquqiy, demokratik jamiyat qurish jarayoni shaxdam qadamlar bilan borayotgan bir sharoitda qonun ustivorligini ta‘minlash zahirida oila a‘zolarining huquqiy madaniyatini shakllantirish oila manfaatlarini ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan ustivor yo‘nalishlaridan biriga aylanib qoldi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilinayotgan qonunlar, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, oila-nikoh munosabatlari, xotin-qizlar va bolalar huquqlari bo‘yicha xalqaro konvensiyalar va deklaratsiyalar va boshqa huquqiy xujjatlarning mohiyatini chuqur anglash hamda o‘z faoliyatlari jarayonida amal qilishga erishish jamiyatning huquqiy savodxonligini oshirishning garovidir. Buning uchun oilaning turli qatlamli a‘zolari huquqiy ongi va dunyoqarashi darajasini o‘stirish mexanizmini yaratish va amaliyotga keng tadbiiq etish zarur. Chunki, huquqiy madaniyat darajasi yuksak jamiyatda oila, ona, ota va bola huquq va burchlari hamma vaqt Konstitutsiya bilan himoya qilinib, oila ajrimlariga, oilada uchraydigan sharqona ahloq normalariga zid sodir etiladigan ba‘zi hatti harakatlarga yo‘l quyilmaydi.

Bu borada davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar butun dunyo tinchliksevar xalqlarning diqqat-e‘tiborini jalb qilmoqda. Jumladan, mustaqilligimizning qisqa davri ichida respublikamizda inson huquqlari bo‘yicha Milliy Markaz, Oliy Majlis huzuridagi amaldagi qonun hujjatlari Monitoringi instituti, Adliya vazirligi qoshidagi huquqiy yordam ko‘rsatish Markazi, Oliy Majlisning inson huquqlari bo‘yicha vakili-Ombudsmanning tashkil etilganligi oila, ota, ona va bola huquqiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan muhim qadamlardir. Inson huquqlarini himoya qilish institutlarining asosiy maqsadi oila deb atalmish kichik jamiyatning huquqiy madaniyatini oshirishga, ularning huquqiy manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

Mamlakatimizda oila huquqlari xalqaro huquq normalariga mos ravishda muhofaza etilmoqda. Mustaqillik yillarida hukumatimiz tomonidan oila-nikoh

munosabatlari, xotin-qizlar va bolalar huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlar va deklaratsiyalarining ratifikatsiya qilinishi buning yaqqol namunasidir. Jumladan, Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasi (BMT Bosh Assambleyasining 1948 yil 10 dekabrda 217 A(SH) rezolyusiyasi), Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi konvensiya (BMT Bosh Assambleyasining 1952 yil 20 dekabrda 640-son rezolyusiyasi), bir xil qiymatdagi ish uchun erkaklar va xotin-qizlarga teng haq to'lash to'g'risidagi (100) Konvensiya (XMT Bosh Konferensiyasining 34-sessiyasida 1951 yil 29 iyunda qabul qilingan), Onalikni ximoya etishga qaratilgan (103) konvensiya (Jeneva, XMT tomonidan 1952 yil 28 iyunda qayta ko'rib chiqilgan), Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya (BMT 43 Bosh Assambleyasi tomonidan 1989 yil 20 noyabrda), Fuqarolik huquqlari va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (BMT Bosh Assambleyasining 1966 yil 16 yanvarda 2200-rezolyusiyasi), Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi Konvensiya (BMT Bosh Assambleyasining 1979 yil 18 dekabrda 34, 180-son rezolyusiyasi), Bolalarning yashashini, himoyalashini va rivojlanishini ta'minlash to'g'risidagi umumjahon Deklaratsiyasi, boshqa mamlakatlarga bolalarni ug'irlab ketishning fuqarolik jixatlari to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi (Gaaga 1980 yil 25 oktyabr), 1995 yilda Pekinda 4-Butunjahon xotin-qizlar konferensiyasida qabul qilingan xotin-qizlarning axvoli bo'yicha asosiy harakatlar dasturi mamlakatimizda oila, onalik va bolalikni xalqaro huquq normalariga mos holda muhofaza qilish borasidagi dastlabki muhim qadamlardir, maqsad har bir fuqaroning, har bir oila a'zosining huquqlarini himoya etilishini xalqaro huquq normalari doirasida yo'lga qo'yishga erishishdir.

Oila a'zolarining huquqiy savodxonligi uning huquqiy himoya qilinishi huquqiy jamiyat barpo etishning negizidir.

Jamiyatda yuz beradigan barcha o'zgarishlar oilaga, oiladagi ma'naviy muhit, uning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy darajasi esa jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotiga ta'sir qiladi. har bir davrning uz dardi, talabi va ehtiyojlari buladi. Mustaqillik odamlar va jamiyat takdiriga ta'lluqli juda kup

jumboqlarni echib tashlash bilan barobar ma'naviyatimizning qator muammolarini kundalang qilib qo'ydi.

Ayniqsa, axloq-odob masalalari katta ahamiyat kasb etib qoldi. Buning sabablari ko'p:

bir tomondan, inson deb atalmish hayot gultojisiga bo'lgan munosabat o'zgardi, uni azaliy va abadiy pok ma'naviyat yuliga qaytarish rejalari tuzila boshlandi;

katta yoki kichik, yaxshi yoki yomon, ilg'or yoki johil millat bo'lmasligi, yomonlikning millati-yu, yaxshilikning chegarasi yuqligiga qanoat hosil qildik:

Inson o'z millati an'analari va umumbashariy qadriyatlar asosidagina kamolotga erishishi qog'ozda emas, amalda tan olindi;

ikkinchidan, soxta baynalmilalchilik, qog'ozdagi xalqar do'stligi g'oyalari odamlar orasida uzoq, zamonlardan buyon shakllanib, rivojlanib kelayotgan birodarlik tuyg'ulariga rahna solib quygani, odamlarning millat ajratmasligi uchun, bir-biriga mehrli-oqibatli bo'lishi uchun urush yoki qahatchilik, zilzila yoki tabiiy ofatlarni boshidan kechirishlari shart emasligi, ijtimoiy adolat o'rnatilgan joyda xalqlar va millatlarning chin insoniy fazilatlari gurkirab unishiga ishonch hosil qila boshladik. Ayrim odamlarni aldash mumkin bulsa ham millatlarni uzoq, laqillatib bo'lmasligiga endi hamma tushunib etdi.

Xalqimizning axloq, andisha, sharm-hayo, halollik va pokizalik, inson qadri-qimmati to'g'risidagi tasavvurlariga zid bo'lgan o'zga madaniyat an'analari yoshlar ongi, dunyoqarashi va shuuriga salbiy ta'sir etishi natijasida ba'zi salbiy xollarning paydo bo'lishi yuz berdi.

Milliy an'analar va qadriyatlar ma'naviy sog'lom oilani barpo etadi. Sog'lom milliylik barq urgan joyda umumbashariy fazilatlarning qadriga etish ham ortadi, millatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlar ham kamol topadi. Uzimizga ham, boshqalarga ham go'zallik va odob timsoli bo'ladigan kelin tushirish odatimizni olaylik. Karnay-surnay sadolari yangragan ko'chada tuy, shodlik, mahalla ahli to'planadi.

Turmushimizda shunaqa voqealar ham uchrab turadi: to'y qiluvchining aholi

nochorroq, hali uy-joy bitmagan, ro'zg'orda kamchiliklar ko'p, bolalar oyoqqa turmagan.

Lekin u mahallani va yor-birodarlarni nahorgi oshga taklif qiladi. SHunda ba'zi birovlar «ahvoling shuku, topganingni bola-chaqangga sarf qilsang bulmaydimi?» degan fikrga boradilar. To'g'ri, shunday qilish mumkin edi. Lekin men bu oilaning kamtarona oshini xalqimizga xos kamtarlik va o'z bolalarini jamoa orasiga olib kirib, ularda ko'pchilik bilan baxamjixat hayot kechirishga urgatish deb bilaman. Nahorgi oshga ketadigan sarf bilan ro'zg'orni batamom tiklab bulmaydi. Lekin biror kishi yoki oilaning obro'si, insoniyligi, milliy tuyg'usi tiklanadi. Bu ham yaxshi fazilatlarni ruyobga chiqarish va tarbiyalashning uzbekona yo'lidir. Men o'z boyligini va mavqeini ko'z-ko'z qilish niyatida qilinadigan hashamatli to'ylarni ko'zda tutayotganim yuq. Bunaqa isrofgarchilikka va manmanchilikka asoslangan to'ylar obru emas, nafrat keltiradi. o'zbek to'y marosimlari xaqida gapirsak, quda-andalarning nozik muomalalari, kelin va kuyovga ko'rsatiladigan mulozamatlar, ilik, bordi-keldilarni ko'rib, nihoyatda ta'sirlanib ketasan, kishi.

Ko'chani to'ldirib karnay-surnay sadolari ostida kelayotgan kuyov va uning jo'ralarini tomosha qilish uchun yosh-yalang tashqariga otiladi, derazalarning pardalari orqasidan kelinchaklar nigox, tashlaydi. Kelin darvozasi oldida ikki tomonga saf tortgan qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar qo'li kuksida, ota ko'zlarida yosh qalqigan, hatto «kuyovning buyi past ekan», «kuyov sariq-mi?», «kuyov baland buyli ekan-a» singari so'zlarning mahalla oralab tarqalishida ham ajib bir xosiyat bor. Mahalla birgalashib kuyovga baho berayotgandek, uni o'z farzandi qilib qabul qilayotgandek bo'ladi.

Mahalla shu daqiqadan boshlab bitta qarindoshga ko'payganday tuyuladi. U shu mahallaning, shu ko'chaning, qo'yingki, hammaning kuyovi. Keyinroq biror joyda uni uchratib qolganda ham «kuyov» deb samimiy murojaat qilamiz. Ana shunday go'zal an'analarimizni ba'zan bachkanalashtiradigan qiliqlar ham paydo bo'lib qolmokda. Kuyov juralarining o'ynab-kulib qaynota darvozasiga kelishi yaxshi. Lekin biroz «qizishib» olgan yoshlarni haddan ortiq, qichqirishlarichi?

Kuyov jo‘ralar qatorida avtobusni to‘ldirib keladigan «zumrasha»larchi? Ayniqsa, darvozadan kirishdagi ur-to‘po-lonchi? Bu xunuklik va adabsizlikning alomati emasmi? YOki nikoxga jo‘nash paytida kelin uyi oldidan jilgan engil mashinalarning signallarini qo‘shni mashallaga etgudek muntazam chalinishi ham madaniy bezorilikning bir alomati emasmi? Ajoyib milliy an‘analarimizni bunday bema‘ni zamonaviylashtirishning oldini olsa bo‘ldi. Buning uchun mahalla ahli maslahat chog‘i kelishib olishlari mumkin. Axir o‘zbek xonadonlarida kechadigan har bir ma‘raka tarbiyaviy yunalishi bilan ajralib turadi-ku?

O‘zbek xonadonlarida asrlar mobaynida hukm surib kelayotgan ertalabki kelin salom, kelinlarning barvaqt turib hovli va darvoza oldilarini supurib-sidirib kuyishlari va kekxa qaynona-qaynotalarga nonushta tayyorlab, tavoze bilan choy uzatishlari milliy ma‘naviy qadriyatlarimizga yorqin misol emasmi? YAqinda bir oilaviy janjalga guvox, buldim. Kuyovning o‘ta injiq va tirnoq ichidan kir qidirish odatlarini bir yoqqa qo‘yib, yoshgina umr yo‘ldoshi oldiga qo‘yayotgan talablarga quloq tutilsa, uning gaplarida ham jon borligi sezildi. Uning xotiniga e‘tirozlari kuyidagicha edi: «Ertalab ishga ketayotganimda «yaxshi boring», kechqurun xizmatdan qaytsam, «yaxshi keldingizmi?» demaydi.

Biror qarindosh-ururlarim kelsa «xush kelibsizlar», ketishayotganda «yaxshi boringlar» demaydi. Piyolaga choy quyib uzatmaydi, har kimning oldidagi piyolaga sharillatib choy kuyadi. SHimlarimga vaqtida dazmol urilmaydi, oq ko‘ylagimning yirtilgan joyini sariq yp bilan chatib quyibdi» va hokazo. Ana shu sabablar bahona yigit yosh bolali xotinini uydan haydab yuborish arafasida ekan. Ikki tomonga nasihatlar qilindi. Yigitning injiqligi, noo‘rin gumonsirashi, «erkakcha» muomalasi, uy-ro‘zror ishlariga aralashmasligi aytib o‘tildi. Rus maktabini bitirgan kelin tabiatidagi ayrim sifatlar ham kursatildi. Biror jiddiy sababsiz buzilish oldida turgan oila mahalla oqsoqollari aralashuvi bilan saqlab qolindi.

Kattalarning aqlli maslahati yoshlarga malxamdek zarur. Agar ona «xudoe hovlisi qursin, seni ularga churilikka bermaganman, saharda turma, sen borguncha kim supurgan bo‘lsa ushalar supuraversin, o‘rgatib quyma, ovqat qilishniyam

bo‘yningga olma, qayno-nang ulgur jodugar, onamnikiga boraman desang tog‘orada bir nima pishirib ham bermabdi, qurumsoq» singari ' gaplarni qizining quloriga quysa, kelin tushgan xonadoniga mehr quyarmidi?! Mayda gaplar tuplanib, butun oila parchalanib ketadi.

Ana shunga o‘xshash milliy qadriyatlar, an‘analar mustahkam oilaning barpo etilishiga va unda dunyoga kelajak bolalarni o‘z xalqi, yurtiga sodiq, millati va vatani ravnaqi uchun xizmat qiladigan, fidokor insonlar etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi respublikada pedagog kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish bilan bir qatorda o‘quv mazmuniga tubdan o‘zgartirish kiritishni talab etmoqda. Endilikda yosh avlodni hayotga va mehnatga tayyorlash vazifalari iqtisodiy va ijtimoiy tub o‘zgartirishlarga hamnafas yangi mazmuni va shaklga ega bo‘lishi lozimligini tobora ravshan bo‘lib bormoqda. Bu esa ta’lim tarbiya jarayoniga yangicha yondashishni taqozo etadi.

Biz o‘zimizning milliy g‘ururimiz, milliy mafkuramizga ega bo‘lgandan so‘ng ta’lim-tarbiya tizimida shunga xos yosh avlodni milliy ruhda, milliy ongini shakllantirishga, halqimizning qadimiy qahramonona o‘tmishini ifodalaydigan asarlarni o‘rganishga qiziqtirish e‘tiborga olinmoqda. Milliy tarbiya O‘zbekistonning davlat mustaqilligini mustahkamlash va amalga oshirishga tayyor yoshlarni tarbiyalab etishtirishda o‘ziga xos nazariy muammolari bor. SHulardan biri – tarbiya nazariyasining hali milliy istiqlool haqidagi ilmiy tushunchalar asosi yaratilmaganligidir.

Ikkinchi muammo – O‘zbekiston mustaqilligini yanada ,mustahkamlashda yosh avlod qanday fazilatlariga ega bo‘lishi kerak, degan savolni aniq tajribaga asoslangan javoblar olish masalasidir. Ma’lum davrda bizning ta’lim tizimimizga jahonning ilg‘or yutuqlaridan, o‘z halqining tarixiy ildizlaridan ajralib qolgan edi.

- Endilikda bunday holatni tag-tomiri bilan o‘zgartirish payti keldi. Oldimizda amalda jahon fani va madaniyatining eng ilg‘or yutuqlarini o‘zida mujassamlashtirgan, inson aql-zakovati yaratgan boyliklaridan bahramand

bo‘lgan yangi avlodni shakllantirish vazifasi turibdi. Har qanday ilmiy nazariya mazmuni va mohiyati jihatidan ma’lum bir halqning, millatning tarixiy, diniy, ma’rifiy, hududiy boy merosining asl negizini yoritishga, ma’naviyatini, ulkan muammolarini hal qilishga xizmat qilmog‘i zarur. Metodologiya mana shu muammolarni echishning asosiy yo‘llarini ko‘rsatib berishi lozim. SHu maqsadni amalga oshirish uchun umumbashariy, milliy, ma’naviy tajribalarga tayangan holda maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarni halq og‘zaki ijodi orqali ahloqiy qadriyatlar quyidagi vazifalarni echishdan iborat deb bildik:

- Maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarni halq og‘zaki ijodi bilan tanishtirish orqali ahloqiy qadriyatlarga, xalqimizning milliy urf – odat, an’analarni bilishga yo‘naltirish;
- Maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarga o‘z halqining tarixiy, madaniy, milliy hususiyatlarini anglab olishga bo‘lgan zaruriyatni tarkib toptirish;
- Hozirgi davrda mustaqillik sharoitida maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarni zamon talablarini anglab etishga yo‘llash.

Zamonaviy maktabgacha ta’lim muassasasida tarbiyaviy ishlarni tahlil qilish, unda yuz berayotgan qarama qarshiliklar, ijimoiy va ma’naviy yo‘nalishni aniqlash pedagogika fanining asosiy vazifalaridan biridir. Markaziy Osiyo halqlarining milliy urf-odat, an’analarni, ma’rifiy tajribalarini ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llash maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarni halqimizning, otabobolarimizning merosini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Albatta, bu ishlar mustaqil respublikamizning istiqbolini mustahkamlash va rivojlantirishda hamda ma’naviy jihatdan etuk, e’tiqodi mustahkam yosh avlodni tarbiyalashda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek halqi barcha halqlar singari asrlar mobaynida saqlanib kelgan milliy qadriyatlari, urf-odatlari, ahloq-odobi, iqtisodiy-ijtimoiy hayoti, rasm-rusumlari, umuman aytganda, madaniy – ma’rifiy dunyosiga egadir. SHu bilan bir qatorda

dunyo madaniyatining rivojlantirishga ham o'z hissasini qo'shdi. Buyuk donishmand va mutafakkirlarning aytishicha, har qanday davlatning mustahkamligi, buyukligi, farovonligi mamlakat fuqarolarning, yoshlarning tarbiyalanganlik darajasiga bog'liq. Biz o'zimizning tariximizni yaxshi bilmasdan turib, buyuk maqsadimizga erishishimiz mumkin emas.

Ta'lim-tarbiyaga yangicha yondashuv asosida maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni ahloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning asosiy yo'nalishlarini quyidagi muammolarni hal etishda deb hisoblaymiz:

- Har bir maktabgacha ta'lim yoshdagi bolaning umuminsoniy, milliy, ma'naviy-ahloqiy xususiyatlarining sifatini oshirish;
- Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolaning o'z halqining urf-odati, an'analari, tarixiy o'tmishini bilib olishi, chuqur tasavvurga ega bo'lishini ta'minlash;
- Mustaqil O'zbekistonning talablariga javob beruvchi ma'naviy jihatdan barkamol, ahloqiy tomondan mustahkam barkamol shaxsni shakllantirish;
- Halq og'zaki ijodi vositasida maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarini ahloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun sharoitlar yaratish;
- Halq og'zaki ijodini o'rganish orqali o'zbek halqiga, uning an'analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmat bilan qarash hamda uni rivojlantirish hissini tarkib toptirish;
- O'z millati, ona Vataniga sodik vatanparvar bo'lish hissini tarbiyalash;
- Halq og'zaki ijodi vositasida yosh avlodni ahloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash negizida ularda halqning hayoti, tarixini bilib olish, ahloqiy qoidalarni o'z ongiga singdirishni ta'minlash;
- Milliy maktabgacha ta'lim muassasasi negizida ta'lim-tarbiya tizimini milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligida amalga oshirish.

Albatta, ta'lim-tarbiya sohasidagi bu ishlarni birdan amalga oshirish

qiyinroq. Mustaqil O'zbekistonimiz bozor munosabatlariga o'tayotgan bir davrda asta-sekinlik bilan bo'lsa ham maktabgacha ta'lim muassasalari milliy ruh olib rivojlanmoqda, darslik, dasturlar yaratilib, amaliyotda o'z natijalarini bermoqda, maktabgacha ta'lim muassasasi tevaragidagi ijtimoiy muhitning barcha ijobiy omillaridan unumli foydalanib, o'ziga xos mazmun kasb etmoqda

Binobarin, oila bizning halqimiz uchun millatning ko'p asrlik an'analari va ruhiyatiga mos bo'lgan g'oyat muhim hayotiy qadriyatlaridan biridir.

Ota-bobolarimiz farzand o'stirar ekanlar, ularning hulq-atvorlariga, gap-so'zlariga kishilar oldiga o'zlarini qanday tutib, nimalar haqida fikrlashib, o'z maqsadlarini qanday so'zlar bilan tushuntirishlariga katta ahamiyat berishgan. Ular farzandlarining qo'rslik qilishi, kattalar suhbatiga aralashishi, nojo'ya ishlariga zinhor yo'l qo'ymaganlar. Bu narsalarga farzand tarbiyasining eng muhim tomoni deb qaraganlar.

Islom dini ta'limotiga ko'ra farzand ko'rgan ota-ona zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatiladi. Tug'ilgan bola qulog'iga azon aytirish, unga munosib ism qo'yish, o'g'il bo'lsa qo'lini halollash, ahloq-odob, ilm hunarga o'rgatish, bo'yga etganda munosibiga uylash, uzatish-boshini ikkita qilib qo'yish kabilardir.

Hozirgi kunda ham oilaviy qadriyatlardan foydalanib bolalarni tarbiyalash ko'pgina oilalarda davom etmoqda.

Onalar qadimda o'z bolalari beshigi tepasida alla aytib, go'dakni xotirjam qiladi, orom olib uxlashga imkon beradi.

Allalarga onalar o'z his-tuyg'ulari, orzu-umidlari, istak-niyatlarini, dard-hasratlarini ham qo'shib aytganlar. Alla nafaqat onaning bolaga mehri, balki bolaning onaga mehr-oqibatining ham manbaidir.

Bolaga munosib ism tanlash va qo'yish ham azaliy odatdir. Xalq orasida bolaning hulq-atvori, fe'li ismidan bilinadi degan gap bor.

O'zbek oilalarida er-xotinlar bir-birining ismini aytib chaqirishmagan, chunki bu odobsizlik sanalib, zaruriyat tug'ilganda bir-birini katta farzandlarining ismi bilan chaqirishgan.

Keksalarni hurmat qilish, ularning maslahatlarini, yo‘l-yo‘riqlarini olib ish tutish, pand-nasihatlariga quloq solish, va unga amal qilish o‘zbeklarga xos odat bo‘lib kelgan.

Nonni e‘zozlash odati qadimdan to shu kungacha davom etib kelmoqda. Mehmon kelganda dasturxonga birinchi bo‘lib non qo‘yilishi, chaqaloqni beshikka solganda boshiga non qo‘yish, safarga ketayotgan kishiga non tishlatib qolish, yo‘lga chiqqanda o‘zi bilan birga non olib ketish eng yaxshi odatlarimiz sifatida qadrlanadi.

Yana bir odatlarimizdan biri suvni e‘zozlashdir. Suvga tuflash, chiqindilarni oqizish, mag‘zava to‘kish, ahlatlarni tashlash gunoh hisoblangan.

Qo‘ni-qo‘shnichilik, mehmondo‘stlik, hashar kabi odatlarimiz eng mo‘‘tabar insoniy xususiyatlar sifatida yashab kelmoqda. Mehmondo‘stlik, ajoyib udumlarimizdan hisoblanadi. Halqimiz o‘zi nochor yashaganda ham topganini mehmondan ayamaydi.

Oilaviy udumlardan biri dasturxon atrofida o‘tirish va oilaviy ovqatlanish, hamda ovqatlanib bo‘lgach dasturxon atrofidagi keksa yoki yoshi kattaroq kishi taom haqi uchun duo fotiha o‘qiydi.

O‘zbek halqining turmush tarziga singib ketgan yaxshi va ijobiy urf-odatlarimizning ko‘pchiligi halqni, jamiyatni faqatgina yaxshilikka-olijanob inson, ahloqi pok, jismoniy sog‘lom, e‘tiqodli shaxs bo‘lib etishishiga xizmat qilib keldi.

Ota-onalar bolalariga har doim ham yangi kiyim olib berisha olmaydi. Yangi kiyim olib berilaversa, oilaning sharoiti yomonlashishini hammaga ayon. SHuning uchun kiyimlarni asrash bilan ota-onasining pulini tejaydi, ularni mexnatini xurmat qilgan bo‘ladi. Oilada yoshligidan mehnatga urgata borilar ekan, ular hamma narsalarni asrab, avaylashga odatlanib boradi. Agar ota-onalar ishlariga kizikayotgan bolani ishdan chetlashtirmaslar, uning qizikuvchanligini qondirishga harakat qilsalar, u xolda bolada mexnat kiluvchilarga nisbatan minnatdorchilik xissiyotini uyg‘otadilar va unda atrofdagilar mehnatiga xurmat shakllantiradi, mehnat qilish ishtiyoqi tug‘iladi. Ba’zida ota-onalar xali yoshsan, - deb bolani kattalarga kumaklashish xissini sundiradilar, aksincha - «Bolaginam katta bo‘lib

qoldi, u o'z zrnini yig'ishtirayapti, stol ustini ovqatlanishdan so'ng artib kuyayapti», deb aytishlik ularni kattalarga taqlid qilishga o'zlarini katta bo'lgandek xis qilishga chaqiradi. Oilada kizlar tarbiyasiga ko'proq e'tibor berilsa, kelgusida tejamkor tadbirkor uy bekasi bo'lishlikka zamin yaratadi.

Qizlarning qo'liga kattalar nazoratida igna berib, ip o'tkazishga, oddiy to'g'ri chok tikishga o'rgatiladi, uziga oddiygina fartukcha tikib, olib ish qilsa, kiyimini asraydi. Akalari, ukalarining eski kiyilmaydigan jemper iplaridan paypoqchalar to'qib berilsa yangi paypoqlarni yirtilishidan asraladi, paypoq puli tejolib, boshqa narsaga ishlatiladi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kattalar bilan birgalikda ishlashlari aloqida ahamiyatga egadir.

Bolalarni maktabgacha muasasalardagi mehnat tarbiyasi oilaviy tarbiyadan ajralmagan xolda olib borilishi kerak. Bolada mehnatsevarlikni tarbiyasining barcha qulay sharoitlari oilada mavjud. Biz bolani oilada mehnatga o'rgatibgina qolmasdan ularini tejamkorlikga ham o'rgatib borishimiz lozim.

1.2 MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI IQTISODIY TARBIYALASH SHAKLLARI

Iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni samarali tashkil etish uning ilmiy asoslarini ishlab chikishni taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasida birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida respublika iqtisodiy taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari, omillari hamda tamoyillari batafsil ko‘rsatib o‘tilgan.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida bozor munosabatlari chuqurlashgan sari ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar yangicha boshqarish uslublarni talab etmoqda. Demak, bozor iqtisodiyotini xayotimizga tobora keng ko‘lamda kirib kelishi yosh avloddan iqtisodiy sohada mushohada yuritishini, iqtisodiy sohada bo‘lishiga ega bo‘lishni talab etmoqda.


O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda bolalarga iqtisodiy bilimlarni berish va ularda iqtisodiy faoliyatni yurita olish ko‘nikma, malakalarni shakllantirish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar iqtisodiyot to‘g‘risida boshlang‘ich tushunchalar olib, oila farovonligi mamlakat iqtisodiyoti bilan chambarchas bog‘liqligini anglaydilar. Bolalarga odob-axloq doirasini tushunish, ko‘pchilikni o‘ylash va unga bo‘ysunish, oila sha’niga dog‘ tushirmaslik, oila mulkini himoya qilish kabi fazilatlar shakllantiriladi.

Iqtisodiy tarbiya - bolalarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oilalarning byudjetini shakllantirish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, kupaytirish, savdo-sotik munosabatlarini tugri tashkil etish va xokazolar)ni tashkil etish kunikma va malakalarini shakllantirishdan iborat bo‘lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Iqtisodiy tarbiyaning asosiy maqsadi – yosh avlodga iqtisodiy faoliyat sub’ekti sifatida qaralgan xolda yosh avlodning kelajakdagi xayot faoliyatlarini oshirish va buning uchun iqtisodiy faoliyat tuzilishini urganish, undagi uzining urnini xis etish, zamonaviy iqtisodiy xulk-atvor me’yorlarini iqtisodiy madaniyatni

egallash, zamonaviy iqtisodiy fikrlashni shakllantirish, mexnat vositalariga va natijalariga tejamkorlik munosabatini tarbiyalashdan iborat.



Iqtisodiy tarbiya ta'lim muassasalarida yo'lga qo'yilayotgan iqtisodiy ta'lim bilan chambarchas xolda olib boriladi. Iqtisodiy tarbiyani tashkil etishda oila, ta'lim muassasasi va jamoatchilik urtasidagi mustaxkam xamkorlikka tayanish ijobiy natijalarni kafolatlaydi. Iqtisodiy ta'lim bolalarga xujalik yuritish tizimi (oila byudjetini shakllantirish, xujalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, kupaytirish, savdo-sotik munosabatlarini tugri tashkil etish va xokazolar) tugrisidagi nazariy bilimlarni berishga yunaltirilgan pedagogik jarayon.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonida bolalarga turli kasb sirlarini o'rganish, ularni asta-sekin hayotga tayyorlash, bolalarga iqtisodiy tushunchalar berishi orqali iqtisodiy tarbiyani shakllantirish har bir tarbiyachining oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Binobarin, iqtisodiy tarbiya yosh avlodda iqtisodiy bilim va kunikmalarni rivojlantirish, ularda tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, iqtisodiy faoliyatni yulga kuyish tugrisida fikrlashga urgatadi.

Maktabagacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berishda SHarq mutafakkirlarining ma'naviy meroslari dasturilamal bo'ladi. Al-Forobiy, al-Buxoriy, al-Beruniy, ibn Sino, Ahmad YAssaviy, al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Amir Temur, YUsuf Xos Hojib, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Boburlarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati har tomonlama rivojlangan, barkamol yosh avlodni tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi.

“Buyuk ipak yo'li” SHarq va G'arb o'rtasida vositachilik vazifasini o'tagan. Bir so'z bilan aytganda, “Buyuk ipak yo'li” SHarq va Fapb xalqlari hayotida tarixiy ahamiyat kasb etgan. U xalqlarni siyosiy, iqtisodiy, savdo va madaniy sohalarda bog'labgina qolmasdan, balki ayni zamonda dunyo xalqlari o'rtasida birodarlik yo'li bo'lgan. Ajdod-avlodlarimiz ruhlarini shod etib, “Buyuk ipak yo'li” an'analarini tiklash va unga sayqal berish - ozod, hur, erkin va tinch yashashdan manfaatdor bo'lgan barcha sof vijdonli fuqarolarning, millati, irqi, jinsi, diniy e'tiqodidan qat'i nazar, ularning muqaddas burchi.

Bugungi kunda mamlakatimiz shiddat bilan rivojlanib, xalqimiz o'z oldiga qo'ygan ezgu va ulug' maqsadlarga erishishga intilmoqda. Bu maqsadlarga etish uchun ota-bobolarimiz asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarni ifoda etadigan ma'naviy meros, madaniy boyliklar, bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlariga tayanamiz.

Bu bebaho merosdan qanchalik yoshlarimizni ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda qudratli ma'rifiy salohiyatga ega bo'lamiz. Bular yoshlarimizni milliy o'zligini anglaydigan, shu bilan birga dunyoni chuqur o'rgangan, zamon bilan hamnafas qadam tashlaydigan etuk insonlar bo'lib etishishiga yordam beradi.

Jamiyat rivojlana borgan sari, ko'pgina tarbiya kategoriyalari kabi iqtisodiy tarbiya ham sekin-asta shakllanib borgan. Iqtisodiy tarbiya insoniyatning uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllandi.

Har bir tarbiyachi xalqimizning asrlar davomida shakllangan o'ziga xos odobi, urf-odatlar, qadriyatlari, insof, imon, vijdon, diyonat, adolat, halollik va poklik kabi xislatlarni bolalarga o'rgatib borishi shart. Chunki bugungi bola o'zbek xalqining iqtisodiyotidan faxrlanishi, axloqli, iqtisodiy odobga ega bo'lgan fuqarosi sifatida jahon xalqlari hurmatiga sazovor bo'lishi lozim.

Iqtisodiy tarbiya tuzilishi asosan o'zaro munosabat faoliyatdan tashkil topgan. Faoliyat - bu insonning o'rab turgan dunyoga bo'lgan munosabati, o'ziga xos xususiyatlar, bir maqsadga qaratilgan hayot mazmunidagi o'zgarishlar, tuzatishlar kabilarni tashkil etadi. Inson faoliyatining asosiy ish turi mehnat bo'lib, u insonning ma'naviy va jismoniy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Mehnat insonning muloqoti, o'qishi va iqtisodiy faoliyatlari bilan chambarchas bog'liq. Mehnat asosida shaxsning iqtisodiy tarbiyasi rivojlanadi, aqliy va axloqiy kamoloti ro'yobga chiqadi.

Iqtisodiy tarbiya insoniyatning ijtimoiy hayotini belgilab berishda, shaxs sifatida shakllanishida asosiy manba hisoblanadi. Iqtisodiy tarbiyaning maqsad va vazifalariga muvofiq ushbu jarayonga iqtisodiy faoliyat ham kiradi. Iqtisodiy tarbiya jarayoni vaqtni iqtisod qilish qonunlaridan kelib chiqadi. Bu qonuniyatning jamiyatdagi mavjud shart - sharoitlarida mavqei ortadi.

Iqtisodiy tarbiyani jamoasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bolalarni mehnatga o'rgatish uchun, avvalo, ularni mehnat qilishga o'rgatish, ularning mehnatlarini turli yo'llar bilan rag'batlantirish lozim. Ularda jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilgan holda moddiy zahiralarni, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni, mehnatni tejab-tergab foydalanishga o'rgatish lozim.

Iqtisodiy tarbiya jarayonida turli faoliyatlarda shaxs xulq-atvori shakllanadi va rivojlanadi. Bola o'sib, ulg'ayib borganidek, iqtisodiy tarbiya ham mustahkamlanib, yangi-yangi qirralarni kashf etadi. Iqtisodiy tarbiya kishining faoliyati va madaniyatini belgilovchi jarayon bo'lib, u barcha xatoliklardan

saqlaydi. Natijada, iqtisodiy ong va bilimlar rivojlanib boradi. Iqtisodiy ta'lim-tarbiya orqali bola iqtisodiy madaniyatga erishadi. Hayotda, tajribada bilimli va bilimsizning iqtisodiy tarbiyasi barobar emasligini ko'p uchratish mumkin. Bola qanchalik iqtisodiy munosabatlarda qiynalsa, u shunchalik iqtisodiy bilimlarni ko'proq egallaydi. Bu holat bolaning yosh xususiyatiga bog'liq.

Har bir mashg'ulot jarayonida bola tomonidan egallangan iqtisodiy bilim, iqtisodiy qarashlar iqtisodiy tarbiya berishga qaratilgan bo'lishi lozim. Iqtisodiy tushunchalarni urta, katta va tayyorlov gurux bolalari uchun muljallangan bulib, mashg'ulotlar ikki xaftada bir marta nutk ustirish, matematika, tabiat, mexnat, tasviriy faoliyat mashg'ulotlar bilan integral tarzda 25-30 minutdan olib boriladi. Mashg'ulotlarning yakunida iqtisodiy o'yinlarning berilishi bolalarning diqqatini, nutki, tafakkurini va mantiqiy fikrlash kobiliyatini rivojlanishiga yordam beradi.

«Bolajon» tayanch dasturi asosida «Ishlash uchun kimga nima kerak», «Bog'bon-bog'bon», «Kim chaqqon», «Nimaning o'rni o'zgardi», "Kim to'g'ri ko'rsatadi va aytadi?", "Rangli doiralar", "Sehrli xalta", "Dasturxon odobi", "Xonada sayohat", "Do'kon", "Qo'g'irchoqni uxlashga"-tayyorlaymiz" kabi mavzulardagi suhbatlar asosan katta guruhlarda tashkil etilsa maksadga muvofik buladi.

Suhbatlar uchun mavzuga doir savollar oldindan tayyorlanib, ishtirokchilar e'tiboriga havola etiladi. Suhbat chog'ida barcha ishtirokchilarning faol ishtirok etishlari, o'z shaxsiy mulohazalarini ifoda etishlari uchun sharoit yaratiladi. Ana shu maqsadda interfaol metodlardan foydalanishga alohida e'tibor qaratildi. CHunonchi, «Kichik guruhlarda ishlash», «Klaster» metodlari yordamida bolalar iqtisodiy savodxonligini aniklandi.

Bolalar iqtisodiy tushincha va tasavvurlarni o'yin amaliy mashklar orkali inson va tez kabul kiladilar. Bunday usullar bolalarning iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiy terminlar olamiga inson va kizikarli yullar bilan kirishiga omil buladi.

Katta va tayyorlov guruxlar uchun «inson va uning extiyojlari, inson va iktisod, pul maxsulotlar sotib olish va oyirboshlash, ishlab chikarish, mexnat faoliyati» kabi mavzular,) uz aksini topgan.

MTM bolalarini tarbiyalashda iqtisodga taalluqli tushunchalarni shakllantirishda uning mazmuni, shakli va uslublarini takomillashtirish alohida rol o'ynaydi. Bu tarbiyachining bilim saviyasiga, pedagogik mahoratiga, o'z kasbini va bolani qanchalik sevishiga bog'liq. Bolalarning mashg'ulot jarayonida olgan iqtisodiy bilimlari, ularning tushunishida, odamlar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatida namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy tarbiya tuzilishida iqtisodiy his-tuyg'ular bolalar hayotida katta ahamiyatga ega. Demak, iqtisodiy bilimlarni shakllantirish uchun bolalarga zamon talablariga javob beradigan bilimlar majmuasini berib, zaruriy ko'nikmalarni shakllantirib, vijdonli, iymonli, irodasi baquvvat komil inson bo'lishiga erishish vazifasi qo'yiladi.

Ushbu vazifaga erishish uchun boshlang'ich davrda bolalarga oila xo'jaligi, undagi ro'zg'or ishlari to'g'risida ilk tasavvurlar beriladi va ularning ongiga mamlakat boyligining asosi insonlarning mehnati orqali yaratilishi singdirib boriladi

Maktabgacha yoshdagi bolalar iqtisodiyot to'g'risida boshlang'ich tushunchalar olib, oila farovonligi mamlakat iqtisodiyoti bilan chambarchas bog'liqligini anglaydilar. Bu ishlarni bolalar bilan maktabgacha ta'lim yoshdanoq olib borish davr talabi bo'lib qoldi. Bolalarimiz yoshligidanok beixtiyor ravishda iqtisod bilan tuknash keladilar. Ular ilk yoshidanok oylada «meniki», «bizniki», «boy», «arzon», «qimmat», «sotib olish», «sotish», «pul» kabi tushunchalar bilan qurallanadilar. SHunday ekan bolalarning oilada o'rganganlarini maktabgacha ta'lim muassasasida davom ettiramiz, ya'ni ilk sodda iqtisodiy tushunchalarni berib borishimiz lozim.

«Moddiy, ma'naviy ehtiyojlari, ularni qondirish yo'llari va usullari?», «Mahsulotlarni ishlab chiqarish. Ularini ishlab chiqarishda nimalardan va kimlarning mehnatidan foydalaniladi?», «Insonlarga pul nima uchun kerak? Ular pullarni qaerdan olishadi?», «Maxsulotlarning narxi nimaga bog'lik? Arzon va kimmatbaxo maxsulotlar. Maxsulotlarning narxi uning sifatiga bog'likligi?», «Pul, uning turlari va shakllari (milliy valyuta, kushni mamlakatlarning pul birliklari)»,

«Bush vaktdan unumli foydalanish mumkinmi?», «Tajamkorlik nima?» va xokazo mavzularda tarbiyaviy tadbirlarning utkazilishi uzining ijobiy natijalarini beradi.

Bolalarda milliy boylik haqida bilim tasavvurlarini kengaytirish davom etadi, milliy boylik tushunchasi, milliy boylikni inson faoliyati tasirida bulishi, boylikni asrash, tarixiy boylikni ezozlash, uni avlodlarga utish jarayoni, Davlat mulkiga munosabat, jamiyat extiyojini qondirish uchun milliy boylikning sarflanishi (tabiiy resurslar), uni ishlatilgan inson mehnati bilan yaratilgan narsalar o‘rnini to‘ldirishda insonning mehnati, ijodkorligi, milliy boylikning o‘sish manbalari dastlabki tushunchalar mashg‘ulotlar vositasida shakllantiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma’naviy-axlokiy va iqtisodiy jihatdan tarbiya berishda mulkchilik tushunchasi tarkib toptiriladi, inson bilan boylik o‘rtasidagi munosabat ertaklar asosida tushuntiriladi, boylik xususida insonlar o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlar multfilmlar namoyishi asosida taxlil qilishga urgatiladi, har bir inson uz mulki orqasidan kun kechira olish jarayoni: dexqonchilik qilish, erni ijaraga berish, mulkchilikka taalluqli narsalar: er, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi, mashina, mehnat (akliy, jismoniy), tarixiy-madaniy yodgorliklar. Mulkchilikning egalari: kishilar, oilalar, jamoalar, davlat, mulkning tejamkorlikni yuzaga keltirish sabablari, mulk shakllari: a) shaxsiy mulk, b) davlat mulki, v) maxalla mulki, g) oila mulki. milliy mulkning milliy boylikka aylanishi haqida dastlabki tushunchalar shakllantiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma’naviy-axlokiy va iqtisodiy jixatdan tarbiya berishda mulkchilik tushunchasi tarkib toptiriladi, inson bilan boylik urtasidagi munosabat ertaklar asosida tushuntiriladi, boylik xususida insonlar urtasida yuzaga keladigan munosabatlar multfilmlar namoyishi asosida taxlil qilishga urgatiloadi, xar bir inson uz mulki orkasidan kun kechira olish jarayoni: dexkonchilik kilish, erni ijaraga berish, mulkchilikka taallukli narsalar: er, suv, usimlik va xayvonot dunyosi, mashina, mexnat (aqliy, jismoniy), tarixiy-madaniy yodgorliklar. Mulkchilikning egalari: kishilar, oilalar, jamoalar, davlat, mulkning tejamkorlikni yuzaga keltirish sabablari, mulk shakllari: a) shaxsiy mulk, b) davlat mulki, v) maxalla mulki, g) oila mulki. milliy mulkning milliy boylikka aylanishi

haqida dastlabki tushunchalar shakllantiriladi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kattalar mehnati bilan tanishtirish vositasida bolalarda «Mening ota va onam nima uchun ishlaydilar?» mavzusi orkali kattalar mehnatiga munosabatni tarbiyalash mumkin. Bunda bolalarning turli xil kasblar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish va ularga nisbatan qiziqishlarini oshirish, ota-ona mehnatining qadriga etishga o'rgatish, bolalar ongiga «maosh», «oylik» so'zlarining mohiyatini singdirish, ma'naviy iqtisodiy tushunchalar tarkib toptiriladi va lug'ati o'sadi.

Biz pedagogika nazariyasidagi mana shu nuqtai nazarga to'la qo'shilgan holda iqtisodiy madaniyat tushunchasi tarkibidagi uchta asosiy element bo'lishi zarur deb hisoblaymiz:

- Iqtisodiy bilimlarning muayyan darajasi;
- Iqtisodiy ongning muayyan darajasi;
- Iqtisodiy faoliyat sohasidagi amaliy ko'nikma va malakalarning muayyan ko'lami.

Bizningcha, bolalarda mana shu uchta tarkibiy elementlar, ya'ni iqtisodiy bilim, ong va harakat mujassamlashsa, uni shartli ravishda iqtisodiy madaniyatli bola deb hisoblash mumkin.

Xo'sh, iqtisodiy madaniyatning dastlabki elementi hisoblangan iqtisodiy bilimning o'zi nima?

Bozor munosabatlari sharoitida maktab bolalari egallashi lozim bo'lgan iqtisodiy bilimlar o'z ahamiyati va ularni egallab olish xususiyatlariga ko'ra turlichadir.

Bu bilimlar bolalarning yosh xususiyatlari va mashgulotlarning mazmuniga ko'ra quyidagi uchta bosqich orqali egallab olinadi:

- Birinchi bosqich, ya'ni maktabgacha ta'lim muassasasidagi dastlabki iqtisodiy savodxonlik. Bu bosqichda bolalar mehnat, oila, bozor, savdo, narxlar, munosabatlar va boshqaruv haqida boshlang'ich iqtisodiy bilimlarni egallaydilar va iqtisod nima degan savolga javob topadilar.

- Ikkinchi bosqich, ya'ni tayanch maktab bolalari iqtisodiy bilim asoslari mehnat, iqtisod, bozor iqtisodiyoti, narx, iqtisodiy munasabatlar, boshqaruv va iqtisodiy taraqqiyot haqidagi bilimlarga ega bo'lib aniq iqtisodiy asoslarini o'zlashtirib boradi.
- Uchinchi bosqich, ya'ni o'rta maktab bolalari o'zlarining qiziqishlariga ko'ra maxsus iqtisodiy tayyorgarlikka ega bo'ladilar.

YUqorida ta'kidlaganimizdek, iqtisodiy madaniyatning ikkinchi elementi iqtisodiy tafakkurdir. Bolalarda iqtisodiy tafakkurning shakllanganlik darajasi ularning quyidagi ayrim xususiyatlarida:

- Birinchidan, o'rganilayotgan yoki turmushda uchraydigan iqtisodiy voqea-hodisalarga hozirgi bozor munosabatlari nuqtai nazaridan baho bera olishida;
- Ikkinchidan, hayotda uchraydigan u yoki bu iqtisodiy voqea-xodisalarning paydo bo'lishi sabablarini tahlil qila olishida;
- Uchinchidan, mavjud iqtisodiy vaziyatga har tomonlama baho berib, uni hal qilishni qulay yo'llarini topa bilishida;
- To'rtinchidan, u yoki bu iqtisodiy voqea-xodisalar rivoji va oqibatini oldindan ko'ra olishida;
- Beshinchidan, Respublikamiz va chet ellaridagi kundalik iqtisodiy xabarlarini tahlil qila olishi va ularga baho berib, xulosa chiqarishida.
- Oltinchidan, dalillar bilan isbotlab va mantiqan to'g'ri iqtisodiy munozara qila olishida ko'zga tashlanadi.


Agar bolalarda mana shunday o'kuv-malakalari shakllangan bo'lsa, demak, uni iqtisodiy tafakkurli deb hisoblash mumkin.

Iqtisodiy faollik bolaning iqtisodiy masalaga oid qonun va qarorlarni har tomonlama tushunishi va ularni amalga oshirishga yo'naltirilgan amaliy faoliyatga qatnashishi bilan izohlanadi.

MTMda deyarli barcha mashg'ulotlar jarayonida bolalarda iqtisodiy madaniyat elementlarini shakllantirish imkoniyatlari mavjud.

Buni quyidagi yo'llar bilan amalga oshirish mumkin:

- Mashgulot jarayonida;
- Mashgulotdan tashqari ishlash jarayonida; Sayr jarayonida;
- Maktab, oila va jamoatchilik hamkorligini yo'lga qo'yish orqali.



Insoniyat iqtisodiyotni qanchalik chuqur va har tamonlama o'rganib olgan paytdagina tejamli foydalanish imkoniyatlariga ega bo'ladi. O'rta maktab bolalari muayyan ilmiy nazariy iqtisodiy bilimlarini o'zlashtirib olsagina iqtisodiy faoliyat sohasidagi yurish-turishi, hulq atvoriga oid amaliy ko'nikma va malakalari shakllanadi.

Ma'lumki, iqtisodning turli jihatlarini faqat tabiiy ilmiy yoki ijtimoiy fanlar emas, balki matematik va texnikaviy fanlar ham o'rganadi.

Iqtisodiy bilimlar majmuasi umumiy bilimlardan tashqari har bir fanning muayyan o'quv materallarini ham o'z ichiga oladi.

Mehnat ta'limidan amaldagi o'quv dasturlari hali ham maktab bolalarini iqtisodiy ta'lim tarbiyalash ehtiyojlariga to'liq javob bermaydi, ularning ko'pchiligida ko'nikma va amaliy malakani shakllantirish masalasiga etarlicha e'tibor berilgan holda iqtisodiy qadr-qimmatga juda kam e'tibor berilgan.

Iqtisodiy tushunchalar majmuasini shakllantirish mehnat ta'limi mazmunini takomillashtirishning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida namayon bo'ladi. Bola iqtisodiy tushunchalar mohiyatini qanchalik to'liq va atroflicha

tushunib etgan paytdagina iqtisodiy sohadagi faoliyatini rejali va samarali olib bora oladi. Asosiy va yordamchi iqtisodiy tushunchalarni bir biridan farqlash muhimdir.

Bolalar faolligini ta'minlaydigan muhim omillardan biri topshiriqlardir. Ular mazmuni va shakliga ko'ra xilma-xil bo'lishi mumkin: shartli-tasvirli, chizmalı topshiriqlar va hokazo. Bular bolalarning o'rtasiga tashlangan iqtisodiy muammolariga qiziqishlarni o'rttiradi, fikrlashini faollashtiradi. SHu sababli har bir tarbiyachi o'rganilayotgan mavzuning imkoniyatlari va mahalliy materiallar asosida iqtisodiy o'quv topshiriqlari ishlab chiqib, ulardan mashg'ulot jarayonida samarali foydalanishi lozim. SHuningdek, bolalar iqtisodiy mazmundagi krossvord, viktorina, rebus shaklidagi topshiriqlarni ham zo'r qiziqish bilan echadilar.

Bolalar bunday topshiriqlarni bajarish jarayonida iqtisod, tejamkorlik va bozor munosabatlari haqidagi tushunchalarni o'zlashtiradilar, tarbiyachi yordamida bozor iqtisodiyotining asoslarini anglaydilar va dastlabki iqtisodiy hulq atvor, ko'nikma va malakalarini egallab oladilar.

Iqtisodiy tarbiyani amalga oshirishda suhbat, ma'ruza, hikoya kabi ananaviy usullardan tashqari xilma-xil o'yinlar va anjumanlar tashkil qilish muhim samara beradi.

Mashg'ulotlarda iqtisodiy mazmundagi rang-barang o'yinlarni tashkil qilish mumkin. Bolalar mashg'ulot jarayonida iqtisodiy ijtimoiy hayotdagi murakkab voqea hodisalarni fahmlash ko'nikma va malakalarini egallaydilar, tankidiy fikr yuritishni o'rganadilar. Bu mashg'ulotlarni o'tkazishning asosiy maqsadi-bolalarning mustaqil ishlash jarayonida iqtisodiy bilimlari egallash bo'yicha ijodiy mehnatda ko'nikma, bilim va malakalariga odatlantirishdan iborat.

YUqoridagi natijalardan xulosa qilib, quyidagi asosiy jihatlariga e'tibor qaratamiz:

Bolalarga o'z mehnati bilan pul topayotgan kishilarga hurmat bilan qarashni o'rgatish kerak. Atrofdagilar e'tiborini faqatgina xo'jalikni tejamkorona ehtiyotlikni va aniq hisob - kitoblar bilan yuritayotgan oilalargina qozonadilar. Ba'zi ota - onalar pulni yomon odat deb, bolalariga bir tiyin ham bermaydilar. Buni

to'g'ri deb bo'lmaydi. Bolalarga pul kerak, agarda bolalar aniq bir yoshga etganida unga ishlatish uchun pul berilmasa, vaqti kelib, u o'zini yo'qotib qo'yishi va pulni to'g'ri ishlatishni bilmasligi mumkin. Bola ishonchini yo'qotadi. Bolaga pul ishonilsa, unda g'urur paydo bo'ladi va unda jamoa ishi uchun qatnashishga javobgarlik xislari paydo bo'ladi. Ota -onalar bolalarga katta bo'lguncha pulni qanday ishlatish, ularni qaerga qo'yish va qanday taqsimlashni o'rgatishlari kerak. Ba'zi bolalar har bir tiyinga ehtiyotkorlik bilan yondashadilar va pulni tejamkorlik bilan ishlatib, pul yig'ishga harakat qiladilar, Agar ular pullarni bayramga yoki tutilgan kunga sovg'a olish uchun yig'ayotgan bo'lsalar, bu yaxshi. Ushbu pullar o'ziga qandaydir qimmatbaho buyum sotib olish uchun yig'ayotgan bo'lsa, bu yomon. Agar ota -onalar yaxshi o'qishlari evaziga qimmatbaho narsa va'da qilsalar, bu ham yaxshi emas. Bunday vaziyat bola tarbiyasiga ziyon etkazishi mumkin. SHunday qilib, iqtisod odobi va tarbiyasi shu kunning dolzarb vazifasidir. Har bir oila bozor sharoitiga o'tayotgan butungi kunda, albatta, yuqorida aytilgan gaplarga rioya qilishi lozim. Bu davr talabi.

SHunday ekan biz bu maxsuliyatni chukur anglab oilalarda iktisodiy munosabatlarni qanchalik jamiyat talablariga muvofiq ekanligini psixologik jihatdan o'rganishni vazifa qilib oldik. Biz birinchi navbatda oilalarda oila – a'zolarining iqtisodiy bilimdonlik darajasini zamon talablariga mos emasligi, ikkinchi navbatta, yoshlarda iqtisodiy madaniyatning shakllanganlik darajasini va undan keyin iqtisodiy – ijobiy qadriyatlarning shakllanganlik darajasini tashxis qilishlikni lozim ko'rdik.

Ma'lumki, prezidentimiz I.Karimov o'z ma'ruzalarida “oilalarning uning muammolari uning iqboli ham davlatimiz, ham jamiyatimiz ehtibori markazida bo'lishi kerak” degan edilar.

Oiladagi bu muammolarning echimi, oila a'zolarining ma'naviy, axloqiy, mafkuraviy, iqtisodiy va xuquqiy bilimdonligi darajasiga bog'liqdir.

Oilalarning a'zolarining iqtisodiy tafakkuri darajasini tadqiqi bugungi yo'nalish bo'yicha bozor iqtisodiyoti sharoitida, dolzarb bo'lgan tadqiqiy ishlarimiz

dasturida oila a'zolarining quyidagi ijobiy tushunchalar va zamonaviy iqtisodiy atamalarni bilishlik darajasini tadqiqoti tashkil etdi:

- Iqtisod, liberallashtirish, rahbarlik, lider, menedjer, marketing, monitoring, mehnat, foydali mehnat, foydasiz mehnat, mehnat huquqi, aqliy mehnat, jismoniy mehnat, mehnat natijasi, qishloq xo'jalik mahsulotlari, sanoat mahsulotlari, transport vositalari, engil sanoat mahsulotlari, madaniy-maxrifiy mahsulotlar, oila xarajatlari, katta xarajatlar, kichik xarajatlar, doimiy xarajatlar, takrorlanuvchi xarajatlar; pul, ko'chmas mulk, qimmatbaho qog'ozlar, aksiya, veksel, omonat daftarcha; tovar-savdo, iqtisodiy siyosat, tovar qiymati, tovarlar importi, tovarlar eksporti; shartnoma, savdogar; bozor, jahon bozori, milliy ichki bozor, ochiq bozor; birja, tovar birjasi, fond birjasi, xaridor, sotuvchi, talab taklif, tovar.
- Mehnat sub'ektini rag'batlantirish, ma'naviy rahbatlantirish muhim rol o'ynaydi. Maqsadga muvofiq: Bolalarda mashg'ulot paytida quyidagi moliyaviy tushunchalarni berish haqida; narx turlari: ulgurji narx, chakana narx, qatxiy narx, limit narx; boshqaruv: faoliyatni boshqarish, o'yin faoliyatini boshqarish, o'z-o'zini boshqarish, mehnat faoliyatini boshqarish, mehnatni ilmiy tashkil etish.

Bizning qanday yashashimiz mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga bog'liq. U avvalam bor, jamiyatga har bir insonning qo'shgan hissasiga bog'liq, lekii bolalarni oilada iqtisodiy tarbiyalash shartlaridan biri bo'lgan uy xo'jaligini yuritish san'ati ham katta ahamiyatga ega. Uy xo'jaligini to'g'ri yuritish, uni ijodiy tashkil etishni ta'minlaydi. Bunda har bir bola uyida o'zining doimiy o'rni borligini va imkoniyatlaridan kelib chiqib, maqsadga muvofiq qulaylik yaratadi.

Ishlab chiqarishdagi kabi uy xo'jaligida ham mohirona rejalashtirishni hisobga olish, nazorat qilishni, tejab - tartiblashi lozim.

Oilaning xotirjamligi ko'p holda oilaviy byudjetni rejalashtirishni bilish, pul mablag'larini, kiyim-kechak, oziq - ovqat, mebel, xo'jalik mollari xarid qilish va uyni ta'mirlashga, to'g'ri taqsimlay bilishga bog'liq.

Pullarni rejasiz sarflash va nazorat yo‘qligi va ishlatilgan mablag‘ni tahlil qilmaslik, moddiy imkoniyatlardan kelib chiqmagan holda ishlatish oila byudjetni sustligiga va ko‘p hollarda pul tansiqligida qarz olishga majbur etadi. Dono xalqimiz bekorga «Ko‘rpangga qarab, oyoq uzat»; «Tiyin so‘mni ehtiyotlaydi» maqollarni keltirmagan.

Iste‘mol mollarini tavakkal tayyorlash va iste‘mol qilish ularni noto‘g‘ri ishlatishga olib keladi. Ba’zida odamlar yaroqli bo‘lgan narsalarni ham keraksiz mahsulot sifatida tashlab yuboradilar.

Xonadon, mebel maishiy - madaniy jihozlarni doimiy ta‘mir qilinmasa, ularning ishdan chiqishi tezlashadi. Ayni paytda hamma xonadonda ham elektr energiyasini, issiqlikni va suvni tejashga qat’iy amal qilishmaydi.

Isrofgarchilik nafaqat oilaviy byudjetni buzadi, balki iste‘mol mollarining tanqisligiga olib keladi. Mohirona tashkil etilgan uy xo‘jaligi tejamkorlik namunasi, yomon tashkil etilgani moddiy boyliklarning bevaqt isrofgarchilik namunasidir.

Tarbiyada nafaqat misol keltirish, balki axloqqa oid, iqtisodiy maqsadga muvofiq bo‘lgan holda xulk -atvor mashqlari o‘tkazish zarur.

Eng ma‘qul xo‘jalik sifatlari bu, vaqtni tejashga to‘g‘ri yondashuv, rejalashtirishni bilish, tejash, bo‘sh vaqtlarining taqsimlashini tahlil qilish. Ushbu sifatlarning oilaning birinchi kunlaridayoq rioya qilish, o‘quv va xo‘jalik maishiy ishlarni ijobiy tashkil etishni o‘rgatish, bo‘sh vaqtni to‘g‘ri tashkil etish kabi sifatlarda namoyon bo‘ladi.

YOshlikdanoq bolalarning o‘z vaqtlarini bekor o‘tkazishlariga, yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Halollik, poklik, vijdonlilik kabi insoniy fazilatlar har bir kishida shakllanishi lozim va eng avvalo oilada tarbiyalanishi nazarda tutiladi.

I BOB BO‘YICHA XULOSA.

Oiladagi tarbiya muhiti, avvalambor, oilaviy munosabatlar madaniyatiga bog‘liq. Zero, oila boshliqlari bilan bolalar munosabati, o‘zaro totuvlik, mehr-oqibat, g‘amho‘rlik, ya’ni xonadon qariyalariga hurmat, e’tibor to‘g‘ri tarbiya vositalarining samaradorligi, ota-onaning mehnatga, ijtimoiy hayot hodisalariga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish, o‘z burchiga mas’uliyatni teran his etishi kabi oilaviy munosabatlarning nozik qirralaridir. Ularning qay birida mutanosiblik buzilsa, demak, o‘sha oiladagi sog‘lom muhitga putur etadi. Oilada sog‘lom muhit va munosabat bo‘lsa millat va jamiyatda ham sog‘lom muhit qaror topadi.

Demak, har bir oilada dunyoga kelgan bola-yosh avlod davlat o‘rtiga qo‘ygan maqsadlarni amalga oshirishda fidokorlik, mehnatsevarlik bilan xizmat qiladigan shaxs sifatida kamol toptirilishi lozim. O‘zbekiston respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek: “Oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo‘lib etishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘i ekanini tan olishimiz darkor”.

Ma’lumki, har bir millatning o‘z urf-odatlari, a’nalari, udumlari bor va ular o‘sha millat uchun bebaho qadriyatlar hisoblanadi. Bu mo‘tabar tushunchalarning paydo bo‘lishi kishilik jamiyatining shakllanish jarayonlari bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. Demak, qadriyat bilan aloqador bo‘lgan mazkur milliy tushunchalar juda qadim-qadimdan ildiz otib, qalb qo‘rimizga singib, milliy ahloq-

odobimiz, tarbiyamizda o'zga halqlar, millatlarga o'rnak bo'lsa arzigulik odobnoma bo'lib kelgan.

Farzandlarning ota-onaga hurmati SHarqda hamma vaqt juda yuqori bo'lgan. Ularning o'zaro o'zaro munosabatlari biz yuqorida ta'kidlaganimiz-milliy qadriyatlarimizning yuksak namunasidir. Farzandlar yoshligidanoq otasiga suyanib, onasining allasini tinglab, ularning sehriga qonib voyaga etganlar. Ular ko'ngliga mehr ona suti bilan kirgan.

Oilaga bunday jiddiy e'tibor berilishi bejiz emas. Oila va jamiyat o'zaro bog'langan. Jamiyatning barcha yutuq, kamchiiklari, ziddiyatlarini ko'ruvchi muqaddas makon. U inson zotini, uning avlodini davom ettirish manbai. Ota-ona, oila bolalarni tarbiyalash va ularni jismonan hamda aqlan kamolotga erishuvi uchun ma'suldirlar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar iqtisodiyot to'g'risida boshlang'ich tushunchalar olib, oila farovonligi mamlakat iqtisodiyoti bilan chambarchas bog'liqligini anglaydilar. Bu ishlarni bolalar bilan maktabgacha ta'lim yoshdanoq olib borish davr talabi bo'lib qoldi. Bolalarimiz yoshligidanok beixtiyor ravishda iktisod bilan tuknash keladilar. Ular ilk yoshidanok oylada «meniki», «bizniki», «boy», «arzon», «qimmat», «sotib olish», «sotish», «pul» kabi tushunchalar bilan qurallanadilar. SHunday ekan bolalarning oilada o'rganganlarini maktabgacha ta'lim muassasasida davom ettiramiz, ya'ni ilk sodda iqtisodiy tushinchalarni berib borishimiz lozim.

«Moddiy, ma'naviy extiyojlari, ularni qondirish yo'llari va usullari?», «Mahsulotlarni ishlab chiqarish. Ularini ishlab chiqarishda nimalardan va kimlarning mehnatidan foydalaniladi?», «Insonlarga pul nima uchun kerak? Ular pullarni qaerdan olishadi?», «Maxsulotlarning narxi nimaga bog'lik? Arzon va kimmatbaxo maxsulotlar. Maxsulotlarning narxi uning sifatiga boglikligi?», «Pul, uning turlari va shakllari (milliy valyuta, kushni mamlakatlarning pul birliklari)», «Bush vaktidan unumli foydalanish mumkinmi?», «Tajamkorlik nima?» va xokazo mavzularda tarbiyaviy tadbirlarning utkazilishi uzining ijobiy natijalarini beradi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar iqtisodiyot to'g'risida boshlang'ich tushunchalar olib, oila farovonligi mamlakat iqtisodiyoti bilan chambarchas bog'liqligini anglaydilar. Bolalarga odob-axloq doirasini tushunish, ko'pchilikni o'ylash va unga bo'ysunish, oila sha'niga dog' tushirmaslik, oila mulkini himoya qilish kabi fazilatlar shakllantiriladi.

II BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI IQTISODIY TARBIYALASH USUL VA VOSITALARI

2.1 MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI IQTISODIY TARBIYALASH USULLARI

Bugungi kunda mamlakatimiz shiddat bilan rivojlanib, xalqimiz o'z oldiga qo'ygan ezgu va ulug' maqsadlarga erishishga intilmoqda. Bu maqsadlarga etish uchun ota-bobolarimiz asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarni ifoda etadigan ma'naviy meros, madaniy boyliklar, bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlariga tayanamiz.

Bu bebaho merosdan qanchalik yoshlarimizni ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda qudratli ma'rifiy salohiyatga ega bo'lamiz. Bular yoshlarimizni milliy o'zligini anglaydigan, shu bilan birga dunyoni chuqur o'rgangan, zamon bilan hamnafas qadam tashlaydigan etuk insonlar bo'lib etishishiga yordam beradi.

Jamiyat rivojlana borgan sari, ko'pgina tarbiya kategoriyalari kabi iqtisodiy tarbiya ham sekin-asta shakllanib borgan. Iqtisodiy tarbiya insoniyatning uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllandi. Eramizdan oldingi XVI asrgacha "Buyuk ipak yo'li" nomi bilan mashhur bo'lgan karvon yo'li Xitoyni Markaziy Osiyo,

Evropa bilan O'rta Er dengiziga olib chiqar edi. Bu yo'l atrofidagi barcha mamlakatlar bilan o'zaro savdo-sotiq qilish orqali aholining u yoki bu tovarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirgan.

Bola o'sib, ulg'ayib borganidek, iqtisodiy tarbiya ham mustahkamlanib, yangi-yangi qirralarni kashf etadi. Iqtisodiy tarbiya kishining faoliyati va madaniyatini belgilovchi jarayon bo'lib, u barcha xatoliklardan saqlaydi.

Pirovardda, bolaning huquqiy, axloqiy sifatlari ortib boradi. Iqtisodiy tarbiya odamning ma'naviy etukligini, mulkka bo'lgan tejamkorlik hislari yuksakligini hamda tarbiyali ekanligini ko'ratadi. SHuning uchun iqtisodiy tarbiyasi yuksak bo'lgan bola - el orasida e'zozli. Iqtisodiy tarbiya axloqiy tarbiya singari insoniy fazilatlarni, kishi qadrini oshiruvchi sifat.

Bola o'z hayoti, faoliyati jarayonida iqtisodiy odobga qanchalik intilsa, u shunchalik o'z xato va kamchiliklarini tezroq tushunib etadi. Kishilik jamiyati taraqqiyoti negizi bir tarixiy bosqichdan boshqa bosqichga o'tishining asosi moddiy ishlab chiqarish, ya'ni kishilarning yashamoqlari uchun zarur iste'mol ne'matlarini ishlab chiqarish ekanligini bugungi kunda hamma biladi.

Har bir tarbiyachi xalqimizning asrlar davomida shakllangan o'ziga xos odobi, urf-odatlar, qadriyatlar, insof, iymon, vijdon, diyonat, adolat, halollik va poklik kabi xislatlarni bolalarga o'rgatib borishi shart. CHunki bugungi bola o'zbek xalqining iqtisodiyotidan faxrlanishi, axloqli, iqtisodiy odobga ega bo'lgan fuqarosi sifatida jahon xalqlari hurmatiga sazovor bo'lishi lozim.

Iqtisodiy tarbiya tuzilishi asosan o'zaro munosabat faoliyatdan tashkil topgan. Faoliyat - bu insonning o'rab turgan dunyoga bo'lgan munosabati, o'ziga xos xususiyatlar, bir maqsadga qaratilgan hayot mazmunidagi o'zgarishlar, tuzatishlar kabilarni tashkil etadi. Inson faoliyatining asosiy ish turi mehnat bo'lib, u insonning ma'naviy va jismoniy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Mehnat insonning muloqoti, o'qishi va iqtisodiy faoliyatlari bilan chambarchas bog'liq. Mehnat asosida shaxsning iqtisodiy tarbiyasi rivojlanadi, aqliy va axloqiy kamoloti ro'yobga chiqadi.

Pirovardda, iqtisodiy ong va bilimlar rivojlanib boradi. Iqtisodiy ta'lim-tarbiya orqali bola iqtisodiy madaniyatga o'rishadi. Hayotda, tajribada bilimli va bilimsizning iqtisodiy tarbiyasi barobar emasligini ko'p uchratish mumkin. Bola qanchalik iqtisodiy munosabatlarda qiynalsa, u shunchalik iqtisodiy bilimlarni ko'proq egallaydi. Bu holat bolaning yosh xususiyatiga bog'liq.

Har bir mashg'ulot jarayonida bola tomonidan egallangan iqtisodiy bilim, iqtisodiy qarashlar iqtisodiy tarbiya berishga qaratilgan bo'lishi lozim.

MTM bolalarini tarbiyalashda iqtisodga taalluqli tushunchalarni shakllantirishda uning mazmuni, shakli va uslublarini takomillashtirish alohida rol o'ynaydi. Bu tarbiyachining bilim saviyasiga, pedagogik mahoratiga, o'z kasbini va bolani qanchalik sevishiga bog'liq. Bolalarning mashg'ulot jarayonida olgan iqtisodiy bilimlari, ularning tushunishida, odamlar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatida namoyon bo'ladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtisodga oid tushunchalarni shakllantirish ishlarini tashkil etishda bir qator usullar qo'llaniladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtisodiy bilim va malakalarini shakllantirishda bolalarning o'yin faoliyatlari bebaho o'rinni egallaydi. O'yin faoliyati jarayonida paydo bo'luvchi mehr hislari bola hayotida, uning butun ruhiy jarayonlarining rivojlanishi va ayniqsa tafakkur va xotirasida bir umrga mustahkamlanib, keyinchalik bola katta yoshga etganida, xotira tasavvurlariga aylanib qoladi.

O'yin usullari. Maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtisodga oid tushunchalarni shakllantirish ishlarini tashkil etishda, ayniqsa ta'limiy o'yinlar, syujetli-rolli o'yinlar, xarakatli o'yinlar, rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar muhim va birinchi darajali rolni o'ynaydi. Ta'limiy o'yinlar orqali bolada mustaqillik, faollik, ijodkorlik masalaga ongli yondoshish malakasi o'stirib boriladi, bolalarda iqtisodiy tushunchalar takomillashtiriladi, masalan «Tejamkorlik – yaxshi odat», «Nima yaxshi-yu, nima yomon», «Pul nima?», «Bank nima?», «O'yinchoklar va ularning yaratilishi», «Bozor turlari», «Dukon turlari», «Nima kaerda ishlab

chikariladi?», «Mening majburiyatlari», «Maxsulot nima?» kabi mashgulotlar orkali bolalarda iqtisodiy bilimdonlik va iqtisodiy madaniyat tarbiyalanadi.

Syujetli-rolli o'yinlar - "Qo'g'irchoq Lolaxonni cho'miltiramiz", "Qo'g'irchoq Lolaxon mehmonga keldi", "Ajoyib xaltacha", "SHaklini top", "Rangini top" kabi o'yinlar kiradi. Syujetli-rolli o'yinlar bolalarni kuzatish, ularni har jihatdan o'rganish, ularnig ichki dunyosiga kirib borishga katta tarbiyaviy imkoniyat yaratadi.

Ijodiy o'yinlarda - eshitish va ko'rish a'zolarini faollashtirish uchun "Xilini top", "Qaysi daraxtning mevasi?", "Nimaning pati", "Mevasini top", "Onasini top", "Mevalar va barglar", "Domino", "YOvvoyi va uy xayvonlari", "Ishlash uchun nima zarur", "Bu uychada kanday xayvon yashaydi", "Bu kim yoki nima?" singari O'yinlardan foydalanish maksadga muvofik bo'ladi. "Ayting biz topamiz", "Topgan topag'on", "Oshqovoq pishdi", "Loy o'yini", "Bog'bonlar" o'yinlari orqali mehnatga muxabbat ruhi tarbiyalanib boradi. Bu O'yinlar orqali bolalarda meva va sabzavotlar, xayvonlar va parrandalar, yil fasllari, kiyim - kechak va boshkalar, kabi tasavvurlar boyitilib, kengaytirilib, kurish va eshitish, esda saqlab qolish xususiyatlari rivojlantirilib boriladi.

Rolli o'yinlar - bolalarni uzbek xalqining milliy turmush tarzi, uziga xos urf – odatlari, kundalik mashgulotlari, odamlarning fe'l – atvori, xarakatlari bilan yakindan tanishtirish bolalarni uyin uchun zarur bulgan narsalarni tayyorlashga urgatish. Rolli o'yinlar orqali bolalarga ularni qurshab turgan kishilarning kundalik hayoti, o'zaro munosabatlari, turmush kechirish yo'sinlari bilan tanishib boradi. Bolalar hamisha kattalarga taqlid kilishadi, qo'g'irchog'ini erkalayotgan qizcha onasining so'zini takrorlaydi, qo'g'irchog'ini beshikka belab alla kuylaydi, mana shu birgina o'yin orqali unda oila sharoitidagi ko'nikmalar hosil bo'layotganligini kuzatishimiz mumkin. Bundan tashqari "SHifokor", "Sartaroshxona", "Do'konda", "Quruvchilar", "Tikuvchilar", "Bog'cha", "Maktab - maktab" kabi o'yinlar orqali maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar qalbida kasbga qiziqish, faollik, o'zgalarga mehnatiga hurmat, ahil va inoqlilik, shirinsuhanlik kabi hislatlar o'stirib boriladi. Kashfiyotga, fikrlashga undaydigan uyinlarni tashkil etish. Saxnalashtirilgan

uyinlarni uynashga sharoit yaratib berish. Uyin jarayonida bolalarning mustakil xarakat kilishlariga imkon yaratish.

Xarakatli o‘yinlar- bolalarning jismoniy kamolatini ta’minlash maksadida kuyidagi xarakatli uyinlar tavsiya etiladi. “Zagizgon”, “Kim uzakka sakraydi?”, “Kalit”, “Duppi yashirma”, “CHavandozlar”, “CHambarakni tushirish”, “Ovchi va kuyoncha”, “CHukurchaga tushirish”, “YAKkama – yakka tortishmachok”, “Xurozlar jangi”, “Argimchok”, “Kim tez tortadi”, “Koptokni urish”.

Ogzaki usullarga –suhbat, savol-javob, hikoya qilish, tushuntirish, izohlash, umumlashtirish kiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ilk iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish borasidagi umumiy va xususiy maqsadni aks ettira oldi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida tadbirlarni muayyan loyiha asosida tashkil etishga alohida e’tibor qaratdik. «Bolajon» tayanch dasturi asosida «Ishlash uchun kimga nima kerak», «Bog‘bon-bog‘bon», «Kim chaqqon», «Nimaning o‘rni o‘zgardi», "Kim to‘g‘ri ko‘rsatadi va aytadi?", "Rangli doiralar", "Sehrli xalta" ,“Dasturxon odobi”, "Xonada sayohat", "Do‘kon", "Qo‘g‘irchoqni uxlashga"-tayyorlaymiz" kabi mavzulardagi suhbatlar asosan katta guruhlarda tashkil etildi. Suhbatlar uchun mavzuga doir savollar oldindan tayyorlanib, ishtirokchilar e’tiboriga havola etiladi. Suhbat chog‘ida barcha ishtirokchilarning faol ishtirok etishlari, o‘z shaxsiy mulohazalarini ifoda etishlari uchun sharoit yaratiladi. Ana shu maqsadda interfaol metodlardan foydalanishga alohida e’tibor qaratildi. CHunonchi, «Kichik guruhlarda ishlash», «Klaster» metodlari yordamida bolalar iqtisodiy savodxonligini aniqlandi.

Tushuntirish usuli – bolalarda iqtisodiy tushunchaning nazariy mohiyati va unga ega bo‘lishning ijtimoiy ahamiyati haqidagi tushunchalar hosil qilinadi.

Izoxlash usuli orkali bolalarda iqtisodiy savodxonlikning shakllanishi uchun sharoit yuzaga keladi.

Hikoya qilish usuli –iqtisodiy tushunchalarning ijtimoiy ahamiyati yoritiladi, xukuviy tushunchalarni tarkib toptirishda quyidagi materiallardan foydalaniladi:

A) Hikoya qilib beriluvchi o'zbek xalq ertaklari, ayrim adiblarimizning bolalar uchun yozilgan asarlaridan «Egri va to'g'ri», «Sahiy bilan baxil», «Zumrad va Qimmat», «Aqlli bola», «YOlg'on do'st», «Bobur va kabutar», A.Navoiyning «SHe'r bilan Durroj», Turgunboy Goyipovning «xunarli yigit xor bulmas», Xayriddin Saloxning «Kuylakni kir kilmayman», «CHumchuk» (uzbek xalq ertagi), Akl va boylik (uzbek xalq ertagi), «Himmatli bo'lsang», M.Murodovning «Ikki xil yordam» va h.k. kabilar.

B) Ijodiy hikoya qilish uchun: Abdulla Avloniy «Aqlli bog'bon», «Saxiylik», Qudrat Xikmatning «Keksa kulol va shogird», «Tandir», «Bog'chamiz bog'ida», «Uy hayvonlari haqida», «Bizning o'yinlarimiz», «Men onamga yordamchi», «Mehmonda», «Hayvonot bog'i» va boshqa kabi hikoyalar orkali mustahkamlanib boriladi.

Ko'rgazmali usullarga - kuzatish, sayr, sayohat, rasmni ko'zdan kechirish kiradi

Ko'rgazmalilik usuli– bolalar tomonidan o'zlashtirilayotgan nazariy ma'lumotlarni mustahkamlash, iqtisodiy tushunchalarning mohiyatini to'laqonli anglanishi, bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarining tarbiyalanishi uchun zarur sharoitni yuzaga keltiradi.


Sayr usuli orkali bolalarda «Paxtakorlar mehnati bilan tanishtirish», «Daraxt barglarining to'kilishi», «Quyosh va yomg'ir», «Qushlar bizning do'stimiz», «Quyuncha, ho quyuncha» kabi juda ko'p mavzularga bolalar e'tiborlarini qaratish ham ular qalbida chuqur iz qoldiradi. «Qurilishga», «Xiyobonga», «Arxeologiya muzeyiga», «Kugirchok soya teatriga», «Maktabga», «Fabrika va zavodlarga», «Baxtiyor ona monumenti» haykaliga sayr uyushtirish

Sayohat usuli orqali «SHahidlar» xotira maydoniga sayohat, «O'rmonga sayohat», «Tarixiy obidalarga», «Tarixiy muzeylarga» sayoxatlar uyushtirish, Millatimiz va vatanimiz, buyuk siymolarining suratlari (A.Navoiy, M.Bobur,

A.Temur va h.k.), «Mustaqillik bayrami» haqida soʻzlab berish bolalarda katta tassurot uygʻotadi.

Interfaol usullar - aqliy hujum, Klaster, namoyish kilish, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara

Interfaol usullar – bolalar tomonidan iqtisodiy tushunchalar shakllanishi yuzasidan erkin, mustaqil fikr yuritish, bahs-munozarani tashkil etish koʻnikma va malakasining tarbiyalanishi, bolalarning standart fikr yuritishdan ozod etish, shuningdek, muhokama etilayotgan muammoning echimiga oid rang-barang gʻoyalarni toʻplashga imkon beradi.



Maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirishdek murakkab pedagogik jarayonda faoliyatni tashkil etishning samarali shakl, usul va vositalarini tanlay bilish, ulardan oʻrinli va maqsadga muvofiq foydalanish oʻzining ijobiy natijalarini beradi.

2.2. MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA TEJAMKORLIK TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH VOSITALARI

Mashg'ulot tarbiyachi rahbarligida o'tkaziladi, tarbiyachi mashg'ulotlarda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalar egallab olgan bilimlarini esa aniklab mustahkamlaydi. Bolalarning amaliy mashg'ulotlarini tashkil etadi. O'quv materialining mazmuni asta-sekin murakkablashtirilib boriladi.

Demak, mashg'ulot bolalarni maktabga tayyorlashda katga ahamiyatga ega. Mashg'ulot orqali bolalar o'quv malakasini egallab oladilar, o'z-o'zini yaxshi tashkil etadigan bo'lib koladilar. Ularda barqoror diqqat, irodani, diqqatni jalb eta olish kabi qobiliyatlar rivojlanadi. Mashg'ulotda ta'lim berish orqali bolalarda maktabdagi o'qishga qiziqish tarbiyalanadi, javobgarlik hissi, o'zini tuta olish, mehnat qilishga intilish odati, topshirilgan ishni bajarish kabi sifatlar hosil qilinadi.

Mashg'ulotlarda bolalarda mustaqil fikr yuritish malakasi tarkib toptiriladi, tarbiyachilarga quloq solish, hikoya qilinayotgan voeadagi asosiy g'oyalarni ajrata

olish, qisqacha umumlashtirish kabi malakalarni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi.

Tayyorlov guruhlarida mashg'ulotlar orqali bolalarda tashabbuskorlik va mustaqillik bilimga qiziquvchanlik, faol tafakkur, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish kabi malakalar tarbiyalab boriladi. Mashg'ulot jarayonida bolalarda kuzatuvchanlik, javobgarlik hissi takomillashtirib boriladi, ularda mehnat qilish malakasi va xohishi tarbiyalanadi. Bolalar bog'chasida kichkintoylarni tevarak-atrofdagi hayot tabiat bilan tanishtirish, ularning nutqini, eng oddiy matematik tasavvurlarni o'stirish mashg'ulotlari, musiqa mashg'ulotlari, tasviriy san'at mashg'ulotlari, ko'rish-yasash, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari olib boriladi. Mashg'ulotlar boladan akliy va jismoniy kuchlarni talab etadi, ya'ni u bolaning faolligi bilan bog'liq bo'lib, bola ma'lum natijaga erishish uchun intiladi. Bu esa boladan uzoq ixtiyoriy diqqatni talab etadi.

Mashg'ulotlarni kunning birinchi yarmida o'tkazish maqsadga muvofiq, chunki birinchidan, bola ertalabki soatlarda aqliy vazifani yaxshi bajara oladi, xona tabiiy yorug'lik bilan yaxshi ta'minlangan bo'ladi. Har bir yosh guruhida necha marta mashg'ulot o'tkazilishi, uning mazmuni va har bir mashg'ulot yosh guruhlariga bo'yicha qancha davom etishi bolalar bog'chasi tarbiya dasturida ularning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda belgilab berilgan.

Har bir mashgulot jarayonida bola tomonidan egallangan iqtisodiy bilim, iqtisodiy qarashlar iqtisodiy tarbiya berishga qaratilgan bo'lishi lozim

MTM bolalarini tarbiyalashda iqtisodga taalluqli tushunchalarni shakllantirishda uning mazmuni, shakli va uslublarini takomillashtirish alohida rol o'ynaydi. Bu tarbiyachining bilim saviyasiga, pedagogik mahoratiga, o'z kasbini va bolani qanchalik sevishiga bog'liq. Bolalarning mashgulot jarayonida olgan iqtisodiy bilimlari, ularning tushunishida, odamlar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy tarbiya tuzilishida iqtisodiy his-tuyg'ular bolalar hayotida katta ahamiyatga ega.

Ta'lim jarayoniga hayotiy talablar asosida mukammallik, aniqlik, izchillik bahsh etish orqali, uning samaradorligini oshirish yo'llarini izlash pedagogika sohasining bugungi vazifasidir.

Zamonaviy pedagogikaga, ta'lim modellariga shunday yondashuvlar ishlanmoqdaki, ular ishlab chiqarish-texnologiya jarayoniga, ko'zlangan maqsadlarga erishish kafolatini beradigan holda yondashish imkoniyatini yaratadi.

Ta'lim texnologiyasi o'qitish jarayoni samaradorligini oshirish muayyan sharoitlarda loyixalashtirilgan natijalarga erishishini kafolatlash maqsadida g'oyasi tashkil etiladi. Faoliyatga bunday yondashishning mohiyati-ta'lim jarayonini tizimlashtirishda uni detallar bo'yicha aniq unsurlarga bo'lib tashlab maksimal darajada shakllantirishdan iborat.

Tadqiqotlar jarayoni shuni ko'rsatadiki, yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan zamonaviy ta'lim ana'anaviy ta'lim asoslari, ta'lim usullari va vositalari, uni tashkil qilish shakllari va natijalari bilan sezilarli darajada farq qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish o'quv jarayonini takomillashtirishga jiddiy ko'maklashishi isbot talab qilmaydigan xaqiqatdir. Mashg'ulotlar jarayonida bolalarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirish metodikasini yoritishda ta'lim-tarbiya jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llab, zamonaviy ta'lim usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqligini nazarda tutish kerak.

Badiiy mehnat ta'limiy mashg'ulotida bolalarga iqtisodiy tarbiyalanganligi xayotiy zarurat amaliy ko'nikmalar asosida shakllantirsa erishilgan yutuqlar samaraliroq bo'ladi. SHuning ham Prezidentimiz ham I.A.Karimov iqtisodiyotni har qanday mafkuraviy tazyiqlardan holi ekanligini mustaqilimizning dastlabki yillaridayoq e'lon qildi.

Mehnat ta'lim mashg'ulotida tarbiyachi bolalarga iqtisodiy bilim berish doirasida fanga qiziqishini uyg'ota olishi va ularning qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan asosiy pedagogik shart-sharoitlarni anglab olishi kerak.

Demak, bolalarning iqtisodiy tasavvurlari ko‘lamini kengaytirish, bilim va kunikmalarini shakllantirish va tarbiyaviyligini yanada oshirishda quyidagilarni hisobga olishi lozim;

- mashg‘ulotlarni uslubiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etish;
- bolalarning iqtisodiy tarbiyalarni oshirishga qiziqish va xohishni e‘tiborga olish;
- bolalar bajargan amaliy ishlarni to‘g‘ri baholash;
- mashg‘ulot jarayonida bolalarni rag‘batlantirib borish;
- namunali, ijodiy ishlardan foydalanib, ko‘rgazmalar tashkil qilish;
- xato va kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish;

Bolalarning iqtisodiy tasavvurlarini, tarbiyaliligini kengaytirish uchun quyidagi shart-sharoitlarni o‘rganish lozim deb o‘ylaymiz;

- -yaxshi jihozlangan va texnika bilan ta‘minlangan xonalarning mavjudligi;
- -bolalarni iqtisodiy bilim olishi uchun kelgusida ularning mehnat faoliyatida amaliy jihatdan zarur bo‘ladigan eng muhim fanni egallab olish sifatida da‘vat etish;
- -o‘qitish jarayonini tashkil qilish, o‘qitishning shakli va uslublarini bilish, bolalarda ijodiy rag‘bat uyg‘otishi iqtisodga oid amaliy topshiriqlarini ongli bajarishga o‘rgatish;
- -bolalarda iqtisodiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;
- -bolalarda mehnat ta‘limi mashg‘ulotlariga qiziqish uyg‘otish;
- -mehnat ta‘limi mashg‘ulotlarida bolalarning psixologik xususiyatlarni hisobga olish.

Maktabgacha yoshdagi «Tabiat Bilan tanishtirish», «Badiiy mehnat», «Tasviriy faoliyat» mashg‘ulotlari insoniyat tomonidan foydalaniladigan mehnat vositalarini turli tomondan tabiiy material sifatida, uning xossalari, amaliy ahamiyati jihatidan

ochib beradi. Bu bilan predmetlararo aloqa iqtisodiy tafakkurni har tomonlama rivojlantirishga, uning pragmatik yo‘nalganligini shakllantirishga imkon beradi.

SHuni ham etiborga olish kerakki, bolaning ongida tevarak atrofdagi olam haqidagi kishilar, hayvonlar, o‘simliklar, jonsiz tabiat to‘g‘risidagi tasavvur va bilimlar. Faqat mexanik ravishda to‘planib bormaydi, ular bolaning olamni tushunishini va unga munosabatini shakllantiradi, ahloqiy sifatlarga va o‘zining tabiatga aralashuvi uchun masxuliyatini sezishga taxsir etadi.

Maktabgacha yoshdagi shaxsning qaror topishi, unda ekologik madaniyatning tabiiy va ijtimoiy muhitga bo‘lgan ko‘p qirrali munosabatlarning shakllanishida muhim bosqichdir. 6 yoshgacha bo‘lgan davrda bola o‘zining shaxsiy rivojlanishida axborotlarni o‘zlashtirib olish hajmi bo‘yicha, muhim yo‘lni bosib o‘tadiki, bundan keyingi hech bir yoshni bu davr bilan taqqoslab bo‘lmaydi. Bunga bolaning rivojlanishidagi tabiiy shart-sharoitlar va tarbiyachining o‘quv-tarbiya jarayonida ulardan foydalanish malakasi yordam beradi. Axborot nazariyasi mutaxassislari maktabgacha ta’limning tugallash davriga kelib inson 75% axborot oladi, bular dastlabki va takrorlanmas bilimlardir. O‘rta maktab va oliy o‘quv yurtida egallanadigan bilimlar asosan avval hosil qilingan bilimlardir

Ijtimoiy foydali ishlab chiqarish mehnati bolalarda biror ishni samarali tashkil etish malakalarini, mahsulot chiqarishning planlashtirilishi, uni tayyorlash uchun sarflanadigan mehnat va moddiy xarajatlarni normallashtirish, yuqori sifali maxsulot chiqarishga erishish uchun zamonaviy ilg‘or texnologiyalardan foydalanish kerakligi haqidagi tushunchalarni xosil qiladi. Bolalarni iqtisodiy faoliyatga jalb qilish jarayonida ularda iqtisodiy muammolarni tushunish tajribasi to‘planib boradi, yangi formatsiyadagi tadbirkorning ahloqiy sifatlari, dunyoqarash va iqtisodiy extiqod shakllanadi. Natijada bolalar o‘z ota-onalarini, ularning muammolarini yaxshiroq tushunadilar, oilaviy o‘zaro munosabat yaxshilanadi, bolada oila byudjetiga jonli qiziqish uygonadi, shaxsiy istexmolidagi buyumlarga elektr energiyasi, oziq-ovqat maxsulotlari iste’molida tejamkorlik paydo buladi.

SHuning uchun tarbiyachi doimo o‘z bilimini turli jurnallardan, o‘quv-metodik adabiyotlaridan olingan yangi bilimlar bilan to‘ldirib borishi lozim.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tushunchalarni matematika mashg'uloti bilan integratsiyalash bilan bog'lik holda tashkil etish kerak.

Maktabgacha ta'lim muassasalari tayyorlov guruxlarida matematika mashg'ulotlari iqtisodiy tarbiya elementlarini ko'paytirib borish lozim. Bolalarning har turli oila xarajatlari, oila a'zolarining qanday daromad manbaalari (ish xaqqi, pensiya, stipendiya, yordam puli va hokazo)lardan qoplanishini bilishlari uchun ularni oila byudjeti asoslariga o'rgatish kerak. Byudjetning raqamlardagi ifodasiga misol keltirish lozim. Bunda oilaning ovqatlanish, kiyim-bosh, poyafzal, kommunal xizmatlar, o'yin-kulgu va hokazolarga sarflanadigan xarajatlarni raqamlarda ifodalangan misollar bilan ko'rsatib berish zarur. SHu bilan birga daromadlar va harajatlarni taqqoslash ham kerak. So'ngra bolaning shaxsiy byudjetini misol qilib ko'rsatish lozim: ota-onalari unga o'yin-kulgulariga necha so'm berishi va bu pullarni qanday sarflashi va hokazo.

SHundan keyin bolalarga ishlab chiqarish harajatlari va ularning turlari haqida oddiy tushuncha berish kerak. Ularga qo'shimcha ishlab chiqarish yoki uy xo'jaligini yuritishni har qanday faoliyat harajatlar bilan bog'liqligini eng oddiy misollarda tushuntirish lozim. Biror bir ishni bajarish, tovar ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish uchun boshqa resurslarni sarflash zarur. Ular esa narxi va sifatiga ko'ra turlicha bo'ladi. SHuning uchun matematik hisoblash va taqqoslashlarga asoslanib ulardan birini tanlashga to'g'ri keladi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy bilimlarni mashg'ulot jarayonida shakllanishida har bir mashg'ulotda quyidagilarga amal qilish kerak:

1. Maktabgacha ta'lim muassasasi ta'lim-tarbiya ishlarida, albatta, bolalar bozor iqtisodiyoti haqida bilim va tushuncha olishi lozim.

2. Bolalarning iqtisodiy bilimini mustahkamlash maqsadida ularni amaliy mashg'ulotlarga jalb qilish kerak.

3. Bolalarda tejamkorlik, tadbirkorlik, har bir narsani tejab tergap ishlatish, vaqtdan unumli foydalanish, ortiqcha sarf- xarajatga yo'l qo'ymaslik haqida ilk tushuncha berish tarbiyachi va ota - onaning vazifasidir.

4. Maktabgacha ta'lim muassasasining umumiy mulkini ehtiyot qilish, shaxsiy mulk bilan davlat mulkini asrash insonning zaruriy ehtiyoji ekanligini anglash.

5. O'quv qurollari uchun bozor iqtisodiyotiga o'tishda sarf qilinadigan mablag'ni iloji boricha ortiqcha sarf xarajatga yo'l qo'ymasdan tejashga o'rgatishdan iborat.

Maktabgacha ta'lim muassasalarimizda berilayotgan barcha bilimlar, bolaga qanchalik yaxshi yashashimiz bu bizning o'zimizga, tejamkorligimizga, vaqtni bekor o'tkazmasdan, undan unumli foydalanishimizga, shuningdek, chin dildan mehnat qilishimizga bog'liq ekanligi haqidagi tushunchani yo'naltirishimizga bog'liqdir.

O'yin vositasida bolalarda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish

Ma'naviy-axloqiy va iqtisodiy tushuncha va tasavvurlarni shakllantiruvchi mashg'ulotlar tizimi asosida bolalar iqtisod, mehnat, oila, jamiyat, boylik, mulkiy munosabatlar, savdo, bozor, pul, maxsulot kabi asosiy tushunchalar bilan tanitib, ularning mohiyati xakida tasavvurga ega bulib boradi. Maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalarni «Atrof-olam bilan tanishtirish» mashg'ulotlarida bolalarga ularni urab turgan moddiy olam (kiyim-kechak, jihozlar, oziq-ovqat), ijtimoiy voqea-hodisalar, (kishilar mehnati, ularniig natijasi) bilan tanishtirib boriladi. «Tabiat bilan tanishtirish» mashg'ulotlarida bolalarga tabiat (jonli, jonsiz), jamiyat, undagi uzgarishlar bilan tanishtirib boriladi. Aynan mana shunday mazmundagi mashg'ulotlar jarayonida bolalarda ilk iqtisodiy tushunchalar shakllanadi, mikdor, kattalik, kuplik, fazoviy tushunchalar haqida esa «Ilk matematik tasavvurlarni shakllantirish» mashg'ulotlarida ega bo'ladilar. Mashg'ulotlarni tashkil qilishda bolaning yoshi, xususiyati, yashash sharoiti xisobga olinishi, yaqindan-uzoqqa, soddadan-murakkabga, aniqlikdan-mavhumlikka qarab borish qonuniyatiga va albatta, ta'lim-tarbiyaning uzviyligiga alohida etibor berish lozim.

Ma'naviy-axloqiy va iqtisodiy tushunchalarni shakllantirishda «Tejamli bola bejog'li bola» o'yindan samarali foydalansa bo'ladi. Mazkur o'yining didaktik maqsadi maktabgacha katta yoshdagi bolalarga «Iqtisod» nima ekanligi haqida

bilim berish, bozor iqtisodiyoti sharoitida erkin xarakatlana oladigan, barkamol, etuk bolalar bulib etishishlari uchun, ularni tejimli, tadbirkor bo'lishga o'rgatish, so'z boyliklariga iqtisodga oid yangi so'zlarni kiritishdan iborat.

Mashg'ulotning borishi: Xona eshigi takillab, dono Buvijon sandiqcha ko'tarib kirib keladilar. Bolalar salomlashib, kutib oladilar.

- Buvijon sandiqchada nima bor? - deb tarbiyachi murojaat qiladi.
- Ha, bunda men Bilarjon nevaramni olib kelganman, - deb sandiqchani ochadi. Sandiqcha ichidan-Bilarvoy «Assalomu-alaykum» deb chiqib keladi. Bolalarga Bilarvoy murojaat kiladi:

- Do'stlarim, mening ismim Bilarvoy. Bu ismi-chi, bolalar, har narsani bilishga qiziqib, savollar beraverganimdan buvijonim qo'yganlar. Bunijonim menga bir kuni «Iqtisod» degan ertak aytib berdilar. Men hozir sizlarga shu ertakni aytib bermokchiman, maylimi?

«Iqtisod» bu katta mamlakat ekan. Unda xamma narsa tejab, isrof qilmasdan ishlatilar ekan. U mamlakat bolalari kiyimlarini kir kilmasdan ozoda yurar ekanlar. Non esalar ushogini erga tukmay, ortganini uloktirmay, ovkat esalar tukmay tanavvul kilar ekanlar. Kiyim boshlarini, o'yinchoklarini yana uz joyiga chiroyli kilib kuyar ekanlar. «Iqtisod» mamlakatida bolalarining qiladigan bu ishlari «tejamkorlik» deb aytilar ekan. SHuning uchun ularning «Iqtisod» mamlakatlari doimo gullab yashnar ekan.

Bolajonlar, ertagim sizlarga yokdimi? Kani, u bolalar kilgan ishni biz ham kila olamizmi? Doimo kiyim boshlaringizni ozoda tutib, o'yinchoklarni uynab bulib, uz joyiga kuya olasizmi, sindirib tashlamaysizmi, nonni eb ortikchasini uz joyiga kuyasizmi, tugmangiz uzilsa tashlab yubormasdan olib kuyasizmi? Ana shunda biz «Iqtisod» mamlakatining bolalariga tenglashamiz. SHunda bizning O'zbekiston mamlakatimiz ham «Iqtisod» mamlakatiga o'xshab, gullab yashnaydi. To'g'rimi. bolajonlar? - deya Bilarvoy bolalar bilan xayrlashib buvijoni bilan birga chiqib ketadilar.

Bolaning mashg'ulotlar jarayonida olgan iqtisodiy bilimi, tushuncha va tasavvurlarini mustaxkamlashda, chuqurlashtirish va kengaytirishda o'yinlarning

urni benixoyadir. Zero, bola o‘ynab turib, dunyo taniydi. Bola o‘yinda aks ettirayotgan narsani tezrok bilib olishga qiziqadi va uni xotirasida mustahkamlab oladi.

SHuning uchun tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy bilim beruvchi yoki iqtisodiy bilimlarini mustaxkamlovchi bolalar o‘yinini tashkil kilar ekan, quyidagi talablarga etibor berishlari zarur:

- o‘yinning mazmuni ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bulishi;
- aks ettirilayotgan narsalar xakidagi tasavvurlar tugri va tula bulishi,
- o‘yin xarakatlari faol malum maksadga karatilgan, ijodiy xususiyatga ega bulishi kerak.

SHuningdek, xamma va ayrim bolalarning qiziqishlarini etiborga olgan xolda o‘yinga rahbarlik kilish, o‘yinchoqlar va kerakli materiallardan maqsadga muvofik foydalanish va bu bilan bolalarning o‘yinda xayrihox va xursand bo‘lishlarini ta’minlash lozim. Tarbiyachi bolalar o‘yiniga rahbarlik qilar ekan, bola shaxsining barcha jihatlariga: ongi, xis-tuyg‘ular, irodasi, xulqiga ta’sir etishi va bundan bolalarni aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan ham shuningdek, iqtisodiy tarbiyalashda ham foydalanish lozim. SHunda o‘yinlar natijasida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi.

Bolajon dasturida badiiy adabiyot bilan tanishtirish

Bolalarda badiiy adabiyotga bo‘lgan qiziqish, muhabbat va zavqlanish ko‘nikmasini shakllantirishda davom etish. Ularga xalq og‘zaki ijodi namunalari: mavsum (“Baka-baka-bum, boychechak”, “CHuchvara qaynaydi-ya” va o‘yin qo‘shiqlari (“Danagim-danak”), yalinmachoq (“Oftob chiqdi olamga”) va qiziqmachoq (“Olatoy, bulatoy”)lar, cheklashmachoq (“Bir degin...”) va hukmlagich (“Qaldirg‘och, g‘och-g‘och”)lardagi ohangning mazmunga ko‘ra o‘zgarib borishini anglash, badiiy so‘zni his etish tuyg‘usini kuchaytirish. Xalq qo‘shiqlaridan o‘z o‘rnida mustaqil foydalanishlariga imkoniyat, topishmoq, tez aytishlar yordamida bolalarning zehni, idroki, tafakkurini kengaytirish. Bolalar diqqatini ertak (“Ovchi, Ko‘kcha va Dono”, “Halollik” o‘zbek xalq ertagi) larning o‘ziga xos xusiyatlariga (boshlanma, takror, tugallanma) qaratish.

Bolalarda badiiy asarni ruhan his etish, uni tushunish, mazmunini soʻzlab berayotganida shoshilmay, ravon bayon eta bilish, har bir soʻzni aniq talaffuz qilish malakalarini oʻstirish. Bolalarning asar qahramonlari xatti-harakatlarini (N.Norqobilov “Do‘st”, X.To‘xtaboev “Ta‘zir”) baholashga, ularning ma‘naviy sifatlaridan: yaxshi, yomon, jasur, qo‘rqoq kabilarni (YA.Sa’dullaeva “G‘isht”) tushunishga, xafa, xursand kabi ruhiy holatlarini (T.Yo‘ldosh “Oyim uyda bo‘lsalar”) his eta olishlariga erishish. Asar voqealari asosida ishlangan rasmlar haqidagi taassurotlarini bayon qilish.

Buyuk allomalarimiz Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur haqida qisqacha ma‘lumot berish, ularning ayrim asar (A.Navoiy “SHer bilan Durroj”v.b.)lari bilan tanishtirish. Bolalar qalbida badiiy adabiyot vositasida ajdodlarga hurmat, iftixor, ona Vatanga sadoqat, (S.Toji “Vatan”, A.Oripov “Bahor shamoli”) ezgulikka mehr-muhabbat tuyg‘usini uyg‘otish.

Bolalarga she‘r (R.Fayz “Baliq”, H.Rahmat “YAxshi so‘z”) yod olish va ifodali o‘qiyotgan (K.Turdieva “Bahor”, E.Vohidov “Ukamning jangi”)larida qofiya, takroriy so‘z va ritmga e’tibor berishni, mazmunni ohang vositasida (so‘roq, his-hayajon, buyruq, iltimos, erkalanish ohangi) ifodalay bilishni, kerak joyida sukut saqlash (pauza)ga rioya etishni o‘rgatish.

Bolalarda badiiy adabiyotga bo‘lgan qiziqish va muhabbatni rivojlantirish, badiiy asardagi go‘zallik, nafosatni his etish ko‘nikmasini mustahkamlash. Bolalarni xalq og‘zaki ijodidan: qo‘shiq (“Navro‘z keldi-yoz keldi...”, “Laylak keldi...”), ertak (“Zumrad va Qimmat”, ”Saxiy bilan Baxil”, ”Egri bilan To‘g‘ri”), doston (“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, ”SHirin bilan SHakar”), afsona (“Etti go‘dakning rizqi”), rivoyat (“Ibn Sino shogirdlari”)lar bilan tanishtirishda davom etish. Maqol, tez aytish, sanamalarni mustaqil ayta olish, topishmoqlarga o‘ylab, fikrlab javob berish. SHarqning buyuk allomalari (YU.X.Xojib “Qutadg‘u bilig”dan parcha, A.Navoiy “Himmatli bo‘lsang”) haqidagi tushunchalarini boyitish.

Bolalarni badiiy asarda aks etgan voqealar haqida (M.Murodov “Sening galing”, K.Rahim “Xo‘rozqand”) mulohaza yuritishga, to‘g‘ri xulosalar

chiqarishga undash. Ertak”, “Gilam”)ning o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi tushunchalarini mustahkamlash. Bolalarda she’riy asarlardagi (SH.Otabek “Achchiq choy”, A.Obidjon “Soxta amaki”) yumor, hazil, kinoyani tushunish, tabiat manzaralari (Q.Muhammadiy “Tongda”, Zulfiya “Oltin kuz”) tasviridan zavqlanish ko‘nikmasini mustahkamlash. She’riy asarlardagi (SH.Sa’dulla “Ninachi”) yorqin badiiy tasvir vositalaridan sifatlash, o‘xshatish, jonlantirish haqidagi boshlang‘ich tasavvurlarini shakllantirish. Nasriy va she’riy asarlar orasidagi asosiy farqlarni tushuntirish. Ertak (“Oltin tarvuz”- hayotda bo‘lmagan, xayoliy, uydirma voqealar tasvirlanadi) va hikoya (F.Musajon “To‘lab ber”- hayotiy voqealar hikoya etiladi) janrining bir-biridan farqli xususiyatlari haqida qisqacha ma’lumot berish. Bolalarda ertak, hikoya, she’r, topishmoq to‘qishga bo‘lgan havasni shakllantirish. Badiiy asarni sahnalashtirish va ijro etish.

Bolalarni asar g‘oyasini tushunishga, tasviriy vositalarini his etishga, she’riy nutqdagi musiqiylik, ohangdorlik, ritmni payqay olishga o‘rgatish.

Ularning badiiy so‘z qudratini his etish, asar qahramonlariga baho berish va ular haqidagi fikrlarini bayon etish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

II BOB BO‘YICHA XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy bilimlarni mashg‘ulot jarayonida shakllanishida har bir mashg‘ulotda quyidagilarga amal qilish kerak:

1. Maktabgacha ta’lim muassasasi ta’lim-tarbiya ishlarida, albatta, bolalar bozor iqtisodiyoti haqida bilim va tushuncha olishi lozim.

2.Bolalarning iqtisodiy bilimini mustahkamlash maqsadida ularni amaliy mashg‘ulotlarga jalb qilish kerak.

3.Bolalarda tejamkorlik, tadbirkorlik, har bir narsani tejab tergap ishlatish, vaqtdan unumli foydalanish, ortiqcha sarf- xarajatga yo‘l qo‘ymaslik haqida ilk tushuncha berish tarbiyachi va ota - onaning vazifasidir.

4. Maktabgacha ta'lim muassasasining umumiy mulkini ehtiyot qilish, shaxsiy mulk bilan davlat mulkini asrash insonning zaruriy ehtiyoji ekanligini anglash.

5. O'quv qurollari uchun bozor iqtisodiyotiga o'tishda sarf qilinadigan mablag'ni iloji boricha ortiqcha sarf xarajatga yo'l qo'ymasdan tejashga o'rgatishdan iborat.

Maktabgacha ta'lim muassasalarimizda berilayotgan barcha bilimlar, bolaga qanchalik yaxshi yashashimiz bu bizning o'zimizga, tejamkorligimizga, vaqtni bekor o'tkazmasdan, undan unumli foydalanishimizga, shuningdek, chin dildan mehnat qilishimizga bog'liq ekanligi haqidagi tushunchani yo'naltirishimizga bog'liqdir.

O'yin vositasida bolalarda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish

Ma'naviy-axloqiy va iqtisodiy tushuncha va tasavvurlarni shakllantiruvchi mashg'ulotlar tizimi asosida bolalar iqtisod, mehnat, oila, jamiyat, boylik, mulkiy munosabatlar, savdo, bozor, pul, maxsulot kabi asosiy tushunchalar bilan tanitib, ularning mohiyati xakida tasavvurga ega bulib boradi. Maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalarni «Atrof-olam bilan tanishtirish» mashg'ulotlarida bolalarga ularni urab turgan moddiy olam (kiyim-kechak, jihozlar, oziq-ovqat), ijtimoiy voqea-hodisalar, (kishilar mehnati, ularniig natijasi) bilan tanishtirib boriladi. «Tabiat bilan tanishtirish» mashg'ulotlarida bolalarga tabiat (jonli, jonsiz), jamiyat, undagi uzgarishlar bilan tanishtirib boriladi. Aynan mana shunday mazmundagi mashg'ulotlar jarayonida bolalarda ilk iqtisodiy tushunchalar shakllanadi, mikdor, kattalik, kuplik, fazoviy tushunchalar haqida esa «Ilk matematik tasavvurlarni shakllantirish» mashg'ulotlarida ega bo'ladilar. Mashg'ulotlarni tashkil qilishda bolaning yoshi, xususiyati, yashash sharoiti xisobga olinishi, yaqindan-uzoqqa, soddadan-murakkabga, aniqlikdan-mavhumlikka qarab borish qonuniyatiga va albatta, ta'lim-tarbiyaning uzviyligiga alohida etibor berish lozim.

Iqtisodiy tarbiya tuzilishi asosan o'zaro munosabat faoliyatdan tashkil topgan. Faoliyat - bu insonning o'rab turgan dunyoga bo'lgan munosabati, o'ziga xos xususiyatlar, bir maqsadga qaratilgan hayot mazmunidagi o'zgarishlar, tuzatishlar

kabilarni tashkil etadi. Inson faoliyatining asosiy ish turi mehnat bo‘lib, u insonning ma’naviy va jismoniy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Mehnat insonning muloqoti, o‘qishi va iqtisodiy faoliyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Mehnat asosida shaxsning iqtisodiy tarbiyasi rivojlanadi, aqliy va axloqiy kamoloti ro‘yobga chiqadi.

Pirovardda, iqtisodiy ong va bilimlar rivojlanib boradi. Iqtisodiy ta’lim-tarbiya orqali bola iqtisodiy madaniyatga o‘rishadi. Hayotda, tajribada bilimli va bilimsizning iqtisodiy tarbiyasi barobar emasligini ko‘p uchratish mumkin. Bola qanchalik iqtisodiy munosabatlarda qiynalsa, u shunchalik iqtisodiy bilimlarni ko‘proq egallaydi. Bu holat bolaning yosh xususiyatiga bog‘liq.

Har bir mashgulot jarayonida bola tomonidan egallangan iqtisodiy bilim, iqtisodiy qarashlar iqtisodiy tarbiya berishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

MTM bolalarini tarbiyalashda iqtisodga taalluqli tushunchalarni shakllantirishda uning mazmuni, shakli va uslublarini takomillashtirish alohida rol o‘ynaydi. Bu tarbiyachining bilim saviyasiga, pedagogik mahoratiga, o‘z kasbini va bolani qanchalik sevishiga bog‘liq. Bolalarning mashgulot jarayonida olgan iqtisodiy bilimlari, ularning tushunishida, odamlar bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatida namoyon bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtisodga oid tushunchalarni shakllantirish ishlarini tashkil etishda bir qator usullar qo‘llaniladi.

III BOB. MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA RIVOYATLAR ORQALI TEJAMKORLIK TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISHNING AMALIY SHART-SHAROITLARI

3.1. MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA RIVOYATLAR ORQALI TEJAMKORLIK TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISHGA QARATILGAN TAJRIBA-SINOV ISHLARI

Tajriba sinov ishlari Termiz shahar 25- sonli MTM ning “Katta guruhida” olib borildi. 2016 -yilning noyabr oyidan 2017- yil may oylarigacha davom etgan

tajriba ishimizda bolalarda tejamkorlik malakalarini shakllantirish uchun turli vositalar va usullardan foydalanishni belgilab oldik. Bolalarda tejamkorlik malakalarini shakllantirish uchun mashg`ulotlarda rivoyatlardan foydalandik.

Tajriba sinov ishlarini quyidagicha rejalashtirdik.

1. Katta guruhni kuzatish, bolalarni o`rganish
2. Mashg`ulotlar rejasi bilan tanishish chiqish.
3. Bolalarda tejamkorlik malakalarini shakllantiruvchi rivoyatlar tanlash.
4. Mashg`ulotlar jadvali asosida, mashg`ulotlardan tashqari vaqtlarda tajriba sinov ishlarini olib borish.

Rivoyatlar “xalqning tarixiy o`tmishi haqidagi badiiy yodnomalar bo`lib, ular hayotiy voqealarni hayotiy uydirmalar asosida aks ettiradi”. Ular tufayli o`tmish ajdodlarning turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlari, hayotiy maqsadlari, orzu-intilishlari, shuningdek, ular tomonidan ko`rsatilgan qahramonliklardan xabardor bo`linadi. “Rivoyatlar afsonalarga qaraganda tarixga yanada yaqinroq turadi. Ular ham xalq ijodidir. Ertakni ertakchi, dostonni baxshilar ijro etsa, afsona va rivoyat istalgan kishi tomonidan aytilishi mumkin. Rivoyatlar mazmuniga ko`ra quyidagi turlarga ajratiladi: 1) tarixiy rivoyatlar – ular bironta shaxs faoliyati va xalq qahramonlari bilan bog`liq voqealarni aks ettiradi; To`maris, SHiroq, Amir Temur, Ulug`bek, Ibn Sino, Beruniy, Alisher Navoiy, Mashrab, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi va shu kabi shaxslar haqida tarixiy rivoyatlar yaratilgan; 2) toponomik rivoyatlar – ularda joy nomlarining kelib chiqishi bilan bog`liq voqealar hikoya qilinadi; masalan, Samarqand, Olmaliq kabi shaharlarning nomlari hamda Nurota ziyoratgohi nomining kelib chiqishi haqidagi rivoyatlar toponomik rivoyatlar jumlasiga kiradi”.

Juda ko`plab rivoyatlar maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tejamkorlik tushunchalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ana shunday rivoyatlardan biri bu – “Non qo`rg`on” nomli rivoyat sanaladi.

Mashg`ulot mavzusi: “Nonqo`rg`on” nomli rivoyatni o`rganish.

Mashg`ulot shakli: mini ma`ruza va amaliy tajriba.

Mashg'ulotda qo'llaniladigan metodlar: kitob bilan ishlash, hikoya qilish, tushuntirish, savol-javob, tajriba.

Mashg'ulot maqsadi: maktabgacha katta yoshdagi bolalarda rivoyat g'oyalari asosida tejamkorlikka oid tushunchalarini boyitish.

Bajariladigan vazifalar:

1. Bolalarga rivoyatni o'qib berish.
2. Rivoyatning mazmuni yuzasidan savol-javob tashkil etish.
3. Bolalarda non va uni asrab-avaylashga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirish.
4. Bolalarning non va uni asrab-avaylashga bo'lgan munosabatlarini aniqlash.

Mashg'ulotning borishi:

1-bosqich: Tarbiyachi bolalarga "Nonqo'rg'on" rivoyatini o'qib beradi.

Kunlardan bir kun bir savdogar savdo-sotiq qilish uchun tuyada uzoq shaharlardan biriga o'tlanibdi. Safar chog'ida vaqti-vaqti bilan to'xtab dam olibdi. Safarining uchinchi kuni ikkita qishloq orasidan o'tibdi. SHunda u shaharga tezroq etib olish va vaqtni tejash maqsadida tuyani ustida o'tirgan holda ovqatlanmoqchi bo'libdi. Endigina bir burda nonni olib tishlagan ekan, undan kichikroq bir bo'lak ajralib, erga tushibdi. Savdogar tuyani to'xtatibdi. U erga tushgach qanchalik izlamasin tuproq orasidan non bo'lagini topa olmabdi. SHunda u ikki kun ishlab non bo'lagi tushgan erning atrofini devor bilan o'rab chiqibdi. Bu erdan o'tayotgan yo'lovchilar buning sababini so'rashganlarida bo'lgan voqeani aytib beribdi. Keyinchalik odamlar ana shu devor atrofida yangi bir qishloqni barpo etishibdi. Qishloqqa "Nonqo'rg'on" deb nom berilibdi.

2-bosqich: Tarbiyachi bolalarga rivoyatning mazmuni yuzasidan savol berib, ularning javoblarini tahlil qiladi. Bolalarga quyidagi savollar beriladi:

1. Savdogar nima uchun safarga o'tlanibdi?
2. U safarning uchinchi kuni qaerdan o'tibdi?
3. Savdogar nima uchun tuyaning ustida o'tirgan holda ovqatlanibdi?
4. U nima uchun tuyadan tushib, nima uchun devor uribdi?

5. Savdogar yo'lovchilarga nimani aytib beribdi?

6. Keyinchalik devor atrofida nima paydo bo'libdi?

7. Qishloq nima deb nomlanibdi?

3-bosqich: Tarbiyachi bolalarga nonni e'zozlash, uni isrof qilmaslik kerakligini tushuntiradi.

Non kishilarning qornini to'ydiradi. Bolalar agar qorningiz ochsa, o'zingizni holsiz sezasiz, harakat qilgingiz kelmay qoladi, to'g'rimi? (Bolalar: Ha). Bunday holatda non iste'mol qilsangiz, o'zingizni tetik his qiladi. Demak, non insonlarga quvvat bag'ishlaydi.

O'zbeklar nonni sevib iste'mol qiladilar, nonning ushog'ini ham e'zozlaydilar. SHuning uchun hamisha dasturxonga non qo'yiladi.

Non bug'doydan tayyorlanadi. Bug'doy esa erta bahorda yomg'ir ko'p yoqqan vaqtda barq urib o'sadi. Agarda suv bo'lmasa, bug'doydan hosil olib bo'lmaydi. Bug'doyning bo'lmasligi nonning qimmatlashishiga yoki butunlay bo'lmasligiga sabab bo'ladi. Urush yillarida kishilar bir burda non muhtoj bo'lishgan.

Bug'doy etishtirish uchun dehqonlar bahordan kuzgacha mehnat qiladilar.

Aytishlaricha, nonni isrof qilish qahatchilik (nonning bo'lmasligiga) olib keladi. SHuning uchun nonni uvol qilib bo'lmaydi. Nonni uvol qilmaslik uchun uni erga tashlamasligimiz, otmasligimiz, ovqatlanayotganimizda sanchqiga nonni sanchib olmasligimiz, ko'chada o'ynayotganimizda non emasligimiz kerak. Nonni dasturxon atrofida o'tirib eyishimiz, uni yuvilgan qo'l bilan ushlashimiz kerak. Agarda non ushoqlari dasturxonda erga to'kilsa, uni oyoq bilan bosmasligimiz lozim. Odobli bola erga to'kilgan non ushoqlarini ehtiyotkorlik bilan terib oladi va odamlar yurmaydigan erga, daraxtlarning taglariga to'kib qo'yadi. Bunda non ushoqlarini qushlar eyishlari mumkin. Dasturxon ham odamlar yurmaydigan erga, daraxtlarning taglariga qoqilishi kerak. Bolalar, sizlar hozirdan nonni e'zozlashga o'rganishingiz kerak!

4-bosqich: Tarbiyachi bolalarning non va uni asrashga bo‘lgan munosabatlari darajasini aniqlaydi. Buning uchun ularga quyidagi savollarni beradi?

1. Odamlarga non nima uchun kerak?
2. Non nimadan tayyorlanadi?
3. Bug‘doyni kimlar etishtiradilar?
4. Nonni uvol qilish mumkinmi?

Mashg‘ulotning ijtimoiy-tarbiyaviy samarasi: Rivoyatning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, u orqali bolalar nonni e‘zozlash kerakligini, nonga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishni o‘rganadilar.

Tejamkorlikka oid bilimlarni ifodalovchi didaktik materiallarni to‘g‘ri tanlash muhim ahamiyatga ega. Chunki didaktik materiallar maktabgacha katta yoshdagi bolalar psixologik xususiyatlariga mos kelgandagina ular tejamkorlik tushunchalarini puxta o‘zlashtira oladilar. Didaktik materiallarning to‘g‘ri, maqsadga muvofiq tanlanganligi bolalarning “o‘quv-biluv faoliyatini samarali tashkil etishni ta‘minlashda namoyon bo‘ladi”. SHuningdek, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tejamkorlik tushunchalarini shakllantirishga xizmat qiladigan didaktik materiallar o‘rtasida o‘zaro izchillikni qaror toptirish ham muhimdir. Bunda “birinchi navbatda, har bir ta‘limiy topshiriqni o‘zlashtirishdan ko‘zda tutiladigan maqsadni aniqlab olish talab etiladi”. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida bolalarni tejamkorlik tushunchalari bilan yaqindan tanishtirishda ana shu masalaga e‘tibor qaratish lozim.

SHunday qilib, nazariy tahlil va amaliyotni o‘rganish natijasida rivoyatlar ham maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tejamkorlik tushunchalarini shakllantirishda samarali didaktik vosita ekanligi aniqlandi. Maktabgacha ta‘lim muassasalari amaliyotida ulardan foydalanishda nazariy bilimlar targ‘ibotini ko‘rsatmali tarzda namoyish etish ularning bolalar tomonidan puxta o‘zlashtirilishiga olib keladi.

Oilada tejamkorlik.

Maqsad:

Ta'limiy: Bolalarga oilada tejamkorlik va tejamkorlikning ahamiyati haqida to'liq bilim berish.

Tarbiyaviy: Bolalarga ona tabiatga muhabbat, uni har bir ne'matini asrab avaylash, iqtisodiy va estetik huquqiy tarbiya berish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarning tejamkorlik, tejamkorlikning ijobiy va salbiy xususiyatlarini, haqidagi bilimlarini oshirish, dunyoqarashini rivojlantirish, bir jamoa bo'lib yashash tuyg'ularini shakllantirish. Nutq madaniyatini o'stirish, mustaqil fikrlayolishga o'rgatish.

Mashg'ulot uslubi: Bahs- munozara

Mashg'ulotning borishi:

Tarbiyachi: Aziz bolajonlar, bugungi mashg'ulotimizni tejamkorlik, uning nima ekanligi va tejamkorlikning ahamiyati haqida olib boramiz. Qani kim aytadi, tejamkorlik deganda siz nimani tushunasiz?

1-bola: Tejamkorlik har bir narsani o'z o'rnida asrab-avaylab ishlatish demakdir.

2-bola: Tejamkor kishining har doim biri ikki bo'ladi, u o'z ehtiyojlariga yarasha ish qiladi.

Tarbiyachi: Tejamkorlik qaerdan boshlanadi?

3-bolalar: Tejamkorlik eng avvalo oiladan boshlanadi?

4-bolalar: Tejamkorlikni inson ota-onasidan o'rganadi.

Tarbiyachi: Inson ongli mavjudot. U har doim yaxshi yashashga intilib kelga. Ayiqning qorni to'ysa, iniga kirib uxlaydi. Inson esa erishgan narsasi va mavqei bilan qanoatlanmaydi. U yaxshiroq ovqatlanishga, yaxshiroq kiyishga, yaxshiroq turmush sharoitiga ega bo'lishga, yuqoridagi martabaga ega bo'lishga, tabiat va jamiyatda kechayotgan hodisa va jarayonlarni yaxshiroq tushunishga, yaxshiroq bilim olishga intiladi. Unga har doim nimadir yetishmaydi.

Shu bois "Inson ehtiyojlarining poyoni, cheki yo'q!", deb aytamiz.

Inson ehtiyojlarini qondirish uchun unga turli xil ne'matlar (resurslar) zarur bo'ladi. Bu ne'matlarning ba'zilarini (havo, suv, quyosh yorug'ligi va issiqligi va hokazolarni) insonga tabiat tekin in'om etadi. Qolganlarini esa insonning o'zi yaratishi lozim. Inson mehnatining iqtisodiy faoliyatining natijasi o'laroq, o'z

ehtiyojlarini qondirish uchun kerakli mahsulotlarni ishlab chiqarishi lozim bo'ladi. Mahsulotlar moddiy narsa yoki biror-bir xizmat ko'rinishida bo'lishi mumkin. Inson ehtiyojlari biror bir moddiy narsani iste'mol qilish yoki biror bir xizmatdan foydalanish evaziga qondirilishi mumkin. Biror mahsulotni ishlab chiqarish uchun tabiatdan xom-ashyo, insonning jismoniy kuchi, bilimi, turli xil mashina va mexanizmlar, asbob-uskunalar, zavod va fabrikalar, xullas bir so'z bilan aytganda iqtisodiy resurslar zarur bo'ladi. Iqtisodiy resurslar miqdori esa afsuski chegaralangan. Shu bois insonning ham mayda etishmovchiliklari ehtiyojlarini to'la qondirishning iloji yo'q.

Shuning uchun inson hayotda hamma mavqeida tejamkor bo'lishi kerak. Masalan: elektr quvvatini quyoshli kunda yoqib qo'yish, kerak bo'lmagan paytda gazni yondirib qo'yish, bu isrofga kiradi. Hatto uyimizda biror bir bazm bo'lgan paytda hamma mehmonlar soniga qarab dasturxon tuzishimiz kerak. O'zimizning kundalik ehtiyojimiz uchun ham bilib, o'ylab ovqat pishirish, non xarid qilish kerak.

Tejamkorlik haqida bir rivoyat aytmoqchiman: "Alijon juda tejamli bola. Har bir narsani ayab-asrab ishlatadi. Bolalarga xos odobni o'zlashtirib olgan. Masalan, ayrim bolalar isrofg'rchilikka ko'p yo'l qo'yishadi.

Alijon rejali ish yuritgani, tejamli bo'lgani uchun hech toliqmaydi. U "Tejamaganning holi tang" degan maqolning ma'nosini yaxshi biladi.

"Non qadri "haqida rivoyat

Sanobar bugun bog'chadan kelib, ustini apil-tapilal mashtirib, oshxonaga chopti. Uning oyisi oshxonada shoshib ovqat tayyorlayotgan edi.

- Oyijon tezroq ovqat bering, qornim juda ochib ketti,-dedi, Sanobar.

Dildora opa esa:

Qizim ovqatim holi tayyor bo'lmagan edi.Non bilan tokchada turgan murabboni yeyaqol,-dedi.

Bu gap Sanobarga yoqmadi.

-non ham ovqatmi?- deb oldida turgan nonni hovliga olib chiqib, kuchukka berib yubordi. O'zi esa xonasiga kirib ketdi. Dildora opa qizidan xafa bo'lib qoldi.

Chunki bugun o`zi ham ishdan kech qaytgan edi. Shutu fayli ovqati tayyor bo`lmagan edi. Shupayt Sanobarning dadasi ham ishdan keldi. Dildora opa bo`lgan barcha voqeani Davron akaga aytib berdi. Davron aka bir oz o`ylanib turdida so`ng menda zo`r fikr bor deb, Dildora opaga birnimalarni tushintirdi.

Oradan bir kun o`tdi. Bugun ham Sanobar huddi kechagiday bog`chadan kech qaytdi. Ustini almashtirdida oshxonaga kirdi. Barcha oila a`zolari- dadasi, oyisi, ukase dasturxon atrofida tushlik qilayotgan edi. Sanobar o`z o`rniga o`tirdi yuoyisidan ovqat so`radi. Oyisiuning oldiga bir kosa sho`rva qo`ydi. Sanobar ovqatdanozginaichib, dasturxondan birnimani izlay boshladi. Ammo u stol ustida yo`q. Sanobar oyisidan non so`radi. Oyisi esa:

Sanobar uyda non tugab qoldi, dadanga aytgan edim, olib kelish yodidan ko`tarilibdi, men esa xamirni endi qoridim. Kecha nonni tashlab yubormaganingda hozir yetaredi. Bizlar yarimta nonni bo`lib yedik, senga esa qolmadi,-dedi.

Shunda Sanobar:

- Menga ham olib qo`ysalaringiz bo`lar ediku,-dedi.

Dildora opa esa :

kecha o`zing non ovqatmi degan edingku,-dedi.

Shu payt Sanobar qilgan ishidan pushaymon bo`lib, yig`lab yubordi. Bir ozdan so`ng, Dildora opa qutida turgan ikkita nonni Sanobarning oldiga qo`ydi. Qiz esa hech narsaga tushinmay hayron bo`lib qoldi.

- Bizlar sening non qadrini anglab yetishingni istaganedik,-dedi dadasi.

“Dono momo” rivoyati

Qadim zamonda bir qishloqda qurg`oqchilik bo`lib ,ekinlar qurib qolibdi. Daraxtlardagi mevalar ham pishib yetilmay qurib yerga to`kilib tamom bo`libdi. Xalq juda qiynalib ochlik azobini tortibdi.

Bu olkadagi ahvolni eshitgan qo`shni mamlakatdagi zolim podshoh shu o`lkaga urush e`lon qilibdi va son-sanoqsiz askarlari bilan bostirib kela boshlabdi.

Xalq sarosimaga tushibdi, jon saqlab qolish uchun to`rt tarafga qocha boshlabdi. Shunda bir kulbada yashaydigan momo ularni to`xtatibdi.

Bolalarim ,azizlarim- debdi momo baland ovozda- yurtni tashlab ketish-katta gunoh. Xalq boshiga tashvish tushib turgan paytda bunday qilish er kishining ishi emas. Irodangizni mustahkam qiling. Ochlik deb shunday qilayotgan bo'lsangiz, menda bir ne'mat bor. Shuni bo'lib yediray kuchingizga kuch , quvvatingizga quvvat qo'shiladi , deb bir xaltacha olib chiqibdi. Odamlar qarab turishgan ekan xalta bo'm- bo'sh emish. Oralarida sabrsiz odamlar ham bor ekan.

- Voy, momo-ey, axir, xaltada hech vaqo yo`qku-debdiular .Shunda momo:
- Shoshma bolam, shoshish shaytonning ishi – debdida xaltaning bir burchagidan bi rmayizni olib ularga ko`rsatibdi.
- Mana men aytgan ne'mat. Bu oxirgisi sizlarga nasib etgan ekan-deb toshning ustiga qo'yib, bo'la boshlabdi. Shunda sabrsiz odamlardan biri
- Bu kampir bizni yo'ldan qoldirib, yovga qurbon qilmoqchimi- debdi.
- Yo`q bolam sabr tagi sariq oltin ,noumid bo'lmanglar, mana mayizni qirqqa bo'ldim, ularni olib og'izlaringa solinlar, o'zingizni qanday his tezda etishni bilasizlar- debdi.

Odamlar mayizni tamshanib yebdi. Shunda mo`jiza yuz beribdi. Hammalari o`zlarida kuch-quvvat sezibdi. Va qochish haqida fikrdan qaytib, yov tomon birlashib boribdi. Uch kechayu uch kunduz jang-u jadaldan so`ng, bir mayizni qirqqa bo'lib yegan yigitlar to`g`ri kampirning oldiga boribdi va unga ta`zim qilishibdi. Chunki ular g`olib chiqdi. Vatanni yovda himoya qilgan edilar.

3.2 TAJRIBA SINOV ISHLARI NATIJALARI VA XULOSASI.

III-BOB BO'YICHA XULOSA.

Masalan, uyda ortiqcha yonib turgan chiroq o'chirilmaydi, krandagi oqib turgan suv tejalmaydi yoki gaz plitasidagi ortiqcha yonib turgan gazga hech kim e'tibor bermaydi. Ba'zilar bozor iqtisodiyoti, qiyinchiliklariga qaramay o'zlarini

boyvochcha ko'rsatib, tejamkorlik urf - odatlariga befarq bo'lmoqdalar. Ayiqsa, bunday hollarni ko'pgina maktablarda bola formasiga rioya qilmay, o'z farzandlarini bashang kiyintirayotgan oilalarda uchratish mumkin. Bunday hol bolada kibri-havolik, manmanlik xislarini shakllanishiga imkon beradi.

Har bir ota-ona o'z farzandiga olinayotgan narsalar halol mehnat natijasining mahsuli ekanligini aytishi lozim.

Bugungi kunda otalar o'z o'g'illariga savdo-sotiq, uy-ro'zg'or ishlarini, onalar o'z qizlariga uy tutish, oziq-ovqat tayyorlash ishlarini o'rgatish qadimiy urf-odatlarimizdir. Ana shundagina oila, ro'zg'or farovonligiga erishish mumkin. Har bir kishining iqtisodchi bo'lishida, ya'ni o'ziniki yoki davlatniki bo'lgan narsalardan ehtiyotkorlik, tejamkorlik bilan ish olib borish.

SHundai ekan, oiladagi shinam uy, sarishta-saranjomlik, dazmollangan kiyimlar-u, tozagina xona, xovlilar, pishayotgan taomning xushbo'y hidi kimga yoqmaydi deysiz.

Albatta, bular oiladagi erkakning topishi va uy bekasining oqilona ish yuritishiga bog'liq.

Xalqimiz «Ko'rpangga qarab, oyoq uzat» naqliga rioya qilib, har qanday olingan narsa ehtiyotkorlik bilan isrofgarchilikka iul qo'ymasdan foydalanishni yoshlarga o'rgatish lozim.

Rizouddin ibn Faxruddin «Tarbiyali xotun» risolasida shunday yozadilar: «Uy ichida bo'lgan xarajatlar va xizmatlar xotin qulidan utib yurgani uchun erlaridan ortiq e'tibor ila tutmoqlari lozim bulur. Elakka chashma suvi, garchi tarnovdan oqib tursada, bor vaqtda to'lmagani kabi ro'zg'or tuta bilmagan xotin-ning eri naqadar ko'p pul topsada etishmas».

Demak, oila mablag'ini nazorat qilish tejamkorlikdir.

Oiladagi o'zaro ichki munosabatlar ham bolada to'g'ri so'zlik, tejamkorlik, xalollik, ishbilarmonlik xislatlarining shakllanishiga yordam beradi.

Faqat oiladagina bizning jamiyatimizga sodiq shaxs sifatiga to'g'ri keluvchi ehtiyotkorlik, tejamkorona hisob -kitob va ishning ko'zini biladigan axloqqa oid his -tuygular beruvchi muhit tashkil etilishi kerak.

Kattalar va bolalar o'zlarini moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish orqali umumiy ste'molchilar doirasiga kiradilar. Bunda bolalar iste'molchi muhitida imtiyozli o'ringa egadirlar.

Bu ular tarbiyasidagi vazifani murakkablashtiradi va ularni ancha samarali echimiga da'vat etadi.

SHunday qilib, bolalarni to'g'ridan - to'g'ri yoki biron - bir narsa yordamida moddiy manfaatlarini ishlab chiqarish, taqsimlash, almashtirish yoki iste'mol qilish ularni oiladagi iqtisodiy tarbiyasini o'sishiga imkon beradi.

Jamiyat ushbu munosabatlarni takomillashtirish orqali nafaqat mehnat qiluvchilarga, balki ularning bolalariga ham eng qulay tarbiya shartlarini yaratib beradi.

Bizning qanday yashashimiz mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga bog'liq. U avvalam bor, jamiyatga har bir insonning qo'shgan hissasiga bog'liq, lekii bolalarni oilada iqtisodiy tarbiyalash shartlaridan biri bo'lgan uy xo'jaligini yuritish san'ati ham katta ahamiyatga ega. Uy xo'jaligini to'g'ri yuritish, uni ijodiy tashkil etishni ta'minlaydi. Bunda har bir bola uyida o'zining doimiy o'rni borligini va imkoniyatlaridan kelib chiqib, maqsadga muvofiq qulaylik yaratadi.

UMUMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR

Ta'lim tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish MTMsidagi pedagogik jarayonning har bir faoliyat turini to'g'ri tashkil etishga bog'liqdir.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining pedagogik jarayonida ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi va kundalik hayot, uyin, mehnat, mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi. Mashg'ulotda ta'lim va tarbiya vazifalari hal etiladi. Bolalar tevarak - atrofdagi hayot va tabiat bilan tanishish, nutq o'stirish va savod o'rgatish,

matematika, jismoniy madaniyat, tasviriy faoliyat, musiqa bo'yicha eng oddiy tasavvur va bilimlarni, malaka va ko'nikmalar sistemasini egallab oladilar. Bolalar egallab olishlari kerak bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar bolalar MTMsi dasturida belgilab berilgan bo'lib, u bolalarning umumiy rivojlanishi va ularni maktab ta'limiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Mashg'ulotlarda ta'lim berish didaktika prinsiplari asosida bolalarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib, ma'lum izchillikda olib boriladi, mazmuni sekin - asta murakkablashtirib boriladi. Natijada u rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xususiyatga ega bo'la di.

Bolalar majburiyatlardan ozod etilgan, Mehnatga chaqirilmagan, dars qilishni va o'ynashni bilmaydiganlar oiladagiga nisbatan, ota-onalar bolalar tarbiyasi masalalari ustida jiddiy o'ylanadigan, oila xayotini to'g'ri tashkillashtiradigan, bolalar uyinlari va mashg'ulotlarini kengayishiga yordam beradigan oilalarda bolalardagi tashkilotchilik xulki anchagina yukoridir.

6 yoshli bola kichkintoylarga rasm chizishga, sodda o'yinchoqlar yasash, qog'ozdan qayiqcha, pirpirak tayyorlab berishi, buvisiga kompot uchun qurigan mevalarni saralashga, yo'qolgan oynani topib berishga yordam berishi mumkin. Oson mehnat topshirig'ini ajratib berish bolani uni faol bajarishga undaydi, va u kerakli materiallar tanlab, o'zining xarakatlarini rejalashtirishni boshlaydi. Bu endi tashabbuskorlik xulqini belgilari borligini bildiradi

Bola mustaqilligi shakllanishida o'z-o'zini nazorat qilish rivoji o'ta muhim. Bu sifat fikrlashni erishilgan natija bilan solishtirish imkoniyatini beradi. Bola kattalar boshchiligida o'z xarakatini faqatgina bitirgandan so'ng emas, balki ish bajarish chog'ida ham baholashni o'rganadi. Maktabgacha yoshdagilarning ish bajarishi qo'yilgan maqsad asosida bo'lishida kattalardan bolalar faoliyatig e'tibor va qo'shimcha ko'tarinkiliklar (rag'batlar, nazorat va x.z.o) ni talab etadi.

Tashkilotchilik xulqi va mehnat ko'nikmasi asosini tashkil etadigan mustaqillikka maxsus sharoit yaratish, turli mashqlar yordamida erishish mumkin va bu erda tezkor muvaffaqiyatga umid qilmaslik kerak.

Bolaga turli topshiriqlar berib, siz unda topshirilgan ishni bajarishni o'ziga yarasha tajribasini orttirasiz, o'zini tashkillashtirish, ko'zlagan maqsadga intilish,

bilimlarini yaratasisiz. Topshiriqlar bolaning doimiy majburiyatiga aylanganda odatga aylanib qoladi, va ularni ortiqcha xohish bo‘lmaganda ham bajaradi.

Bolani vaqt bo‘yicha ozgina mo‘ljall olishga, vaqtdan tegishli harakatni o‘zgartiruvchisi sifatida foydalanishga o‘rgatish – tashabbuskorlik xulqi tarbiyasining maqsadlaridan biridir. Tartibni bajarish aynan bolaga vaqt bo‘lakchalarining uzunligini sezishga yordam beradi. Bolalar vaqtdan yanada unumli foydalanishga o‘rganadilar. Ular gigienik muolajalarni tezlik bilan bajarish hisobiga o‘yin va mashg‘ulotlar vaqtini uzaytiradilar.

TAVSIYALAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi “Qonun”i., Toshkent., 1997 yil
- 2.. O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”., Toshkent., 1997
3. . “Bolajon” tanch dastur. T., 2010 yil
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarga qo‘yiladigan davlat talablari. T. 2012.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi., Tosh., “SHarq”., 1999 y.

6. Karimov I.A. Milliy mafkura haqida., Tosh., 2000 y.
7. Karimov I.A. Sogʻlom avlod tarbiyasi – barchamizning muqaddas insoniy burchimiz., Tafakkur jurnali., 2 – son., 2000 y.
8. Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat engilmas kuch., Toshkent., “Maʼnaviyat”, 2008 yil. 87-b.
9. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri., Toshkent., 1993 y. -73 b.
- 10 Abu Rayxon Berkniiy. Ruhiyat va taʼlim – tarbiya haqida., Toshkent., 1992 yil. 43 b.
11. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq., Toshkent., “Oʻqituvchi”., 1992 yil. 21 b.
12. Azarov YU.P. Oila pedagogikasi., Tosh., “Oʻqituvchi”., 1988 y. 45-46 b.
14. Alimov X. Milliylik va ijtimoiy ruhiyat., Tosh., 1992 y. 13-15 b.
15. Anekeeva N.P. Jamoadagi ruhiy muhit., Tosh., “Oʻqituvchi”., 1992 y. 56 b.
16. Baratov SH.R. Mehnat tarbiyasi va uning psixologik asoslari., B, 1991 y.
17. Baratov SH.R. Oʻz Maktabgacha yoshdagi bolangizning psixologiyasini bilasizmi?, Boshlangʻich taʼlim., 1997 y., 2 – son.
18. Baratov SH.R. Maktabgacha yoshdagi bolangizni stressdan asrang. Sihat – salomatlik., 1997 y., 2 – son.
19. Voxidov M. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi., Toshkent., “Oʻqituvchi”., 1982 yil., 366- bet.
20. Davletshin.M.G. Milliy maktabda tarbiyaning dolzarb muammolari., /Xalq taʼlimi., № 3-4.,1995.
21. Davletshin.M.G. Oiladagi nizolar psixologiyasi va uni bartaraf etish yoʻllari., Oʻzbek oilasining etnopsixologik muammolari., Resp. ilm. Amal. anjum. maʼruz. qis. bayoni., Tosh., 1993 y. 67-69 b.

28. Dadaxonov M. Oilada maktabgacha yoshdagi bola tarbiyasining psixologik xususiyatlari. Toshkent., O‘zbekiston., 1980 yil. 53-54 b.
29. Inomova M. Oilada Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy – axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar. Tosh., “Fan”., 1995 y. 33 b.
30. Yo‘ldosheva R. O‘zbek xalq o‘yinlarining tarbiyaviy ahamiyati. Tosh. 1992 y
31. Karimova V.M. Psixologiya., Toshkent., 2001 yil. 67 b.
32. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari.Toshkent., 1999 yil.42 b
33. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot.,Toshkent., “Universitet”., 1999 yil. 69 b.
34. Karimova V.M. O‘zbek yoshlarida oila to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi. Doktorlik dissertatsiyasi., Tosh., 1994 y.
35. M.Norbosheva Bolalar psixologiyasi. (o‘quv qo‘llanma) 2003 yil. -18-21 b.
36. Nishonova Z.T. Psixik taraqqiyot diagnostikasi., Tosh., 2004 y. 28 b.
37. Rasulova M. Oilada Maktabgacha yoshdagi bola tarbiyasiga munosabatlarni takomillashtirishning psixologik tomonlari. O‘zbek oilasining etnopsixologik muammolari. Respublika ilmiy – amaliy anj. ma’r. bayoni. Toshkent., 1993 yil., 154 – 155 betlar.
38. Safo Ochil. Mustaqillik ma’naviyati va tarbiya asoslari., Toshkent., “O‘qituvchi”., 1997 yil. 66 b.
39. Sodiqxo‘jaeva N. G‘oziev E. Farzand kamoli., Toshkent., “O‘zbekiston”., 1989 yil 48 b.
40. Sodiqova.S Maktabgacha pedagogika. Toshkent., 2013 yil . 68-71 b.
41. To‘raeva O. Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi.,Toshkent., Univer., 1990 yil. 112 -123b.
42. G‘oziev E.G‘., Psixologiya., YOsh davrlar psixologiyasi.,Toshkent., “O‘qituvchi”.,1994 yil. 36-39 b.

Elektron ta'lim resurslari

1. www.pedagog.uz
2. www.Ziyonet.uz
3. www.edu.uz

ILOVALAR

Ota-onalar bolalariga har doim ham yangi kiyim olib berisha olmaydi. Yangi kiyim olib berilaversa, oilaning sharoiti yomonlashishini hammaga ayon. SHuning uchun kiyimlarni asrash bilan ota-onasining pulini tejaydi, ularni

mexnatini xurmat qilgan bo‘ladi. Oilada yoshligidan mehnatga urgata borilar ekan, ular hamma narsalarni asrab, avaylashga odatlanib boradi. Agar ota-onalar ishlariga kizikayotgan bolani ishdan chetlashtirmaslar, uning kizikuvchanligini kondirishga xarakat kilsalar, u xolda bolada mexnat kiluvchilarga nisbatan minnatdorchilik xissiyotini uyg‘otadilar va unda atrofdagilar mehnatiga xurmat shakllantiradi, mehnat qilish ishtiyoqi tug‘iladi. Ba’zida ota-onalar xali yoshsan, - deb bolani kattalarga kumaklashish xissini sundiradilar, aksincha - «Bolaginam katta bo‘lib qoldi, u o‘z zrnini yig‘ishtirayapti, stol ustini ovqatlanishdan so‘ng artib kuyayapti», deb aytishlik ularni kattalarga taqlid qilishga o‘zlarini katta bo‘lgandek xis qilishga chaqiradi. Oilada kizlar tarbiyasiga ko‘proq e’tibor berilsa, kelgusida tejamkor tadbirkor uy bekasi bo‘lishlikka zamin yaratadi.

Qizlarning qo‘liga kattalar nazoratida igna berib, ip o‘tkazishga, oddiy to‘g‘ri chok tikishga o‘rgatiladi, uziga oddiygina fartukcha tikib, olib ish qilsa, kiyimini asraydi. Akalari, ukalarining eski kiyilmaydigan jemper iplaridan paypoychalar tukib berilsa yangi paypoqlarni yirtilishidan asraladi, paypoq puli tejalib, boshqa narsaga ishlatiladi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kattalar bilan birgalikda ishlashlari aloqida ahamiyatga egadir.

Bolalarni maktabgacha muasasalardagi mexnat tarbiyasi oilaviy tarbiyadan ajralmagan xolda olib borilishi kerak. Bolada mexnatsevarlikni tarbiyasining barcha yulay sharoitlari oilada mavjud. Biz bolani oilada mehnatga qrgatibgina qolmasdan ularini tejamkorlikga ham o‘rgatib borishimiz lozim.